

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
O`zbekiston tarixi kafedrası**

Tursunova Iroda Sirojiddin qizi

**«NORINLIK QATAG`ON QURBONLARI QOSIMOV DO`STMIRZA,
TOSHXO`JAYEV XAQQUL, EGAMBERDIYEV SHARIPBOY, RUSTAMOV
ASLANLARNING HAYOT YO`LI, QISMATI VA TAQDIRI »**

**5220200 – tarix va ijtimoiy fanlar
tarix ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ish rahbari: tarix fanlari nomzodi,
dotsent S.A. Hoshimov.**

Andijan - 2012 yil

M U N D A R I J A

1. Kirish.....	3
2. Norin tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlari.....	11
3. «Katta terror» qurbonlarining hayot yo`li va taqdiri.....	28
4. Qatag`on qurbonlarining xozirgi avlodlari.....	41
5. Xulosa.....	49
6. Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro`yxati.....	51
7. Ilovalar.....	54

Kirish. (Mavzu tarixshunosliqi, manbashunosliqi, dolzarbliqi.)

Mavzuning dolzarbliqi. Mustaqillik yillarida respublikamizda tub islohatlarni o'tkazish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish va milliy o'zlikni anglash va erkin tafakkurga ega bo'lgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash kabi ulug'vor ishlarda tarix faning ro'li va ahamiyati toboro ortib bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida el-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab ma'shum xatarlarni bir necha bor ko'rgani, ularning jabru jafosini tortgani haqida to'xtalib mana bunday deb yozgan edi: "Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqealikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q... Tarixiy xotira tuyg'usini to'laqonli ravishda tiklangan xalq, bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va xaqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi."¹ deb ta'kidlaydi.

Shu o'rinda yana Prezidentimiz o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida sovet davrida kechgan ijtimoiy jarayonlarga to'xtalib, bildirgan quyidagi fikrlarini keltirishni lozim deb bilamiz. "Shaxsga sig'inish yillarida, turg'unlik yillarida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar, maqsadlar va ularga erishish yo'llari butunlay buzilib, soxtalashtirib yuborildi. Asossiz ravishda qilingan ommaviy qatag'onlarni, kollektivlashtirish va sanoatlashtirish davrida turmushning asosiy negizlari shafqatsizlik bilan barbod qilingani, xalqlarning ma'naviy qadriyat va an'analari qalbakilashtirilganini... ko'rsatuvchi tobara yangi-yangi daxshatli misollar hozir ma'lum bo'lib qolmoqda."²

Mavzuning dolzarbliqi yana shu bilan ham belgilanadiki, sobiq totalitar hokimiyat tomonidan o'zbek qishlog'ining tadbirkor, o'ziga to'q toifasi bo'lgan xo'jaliklarning tugatilishi va qatag'on qilinishining haqqoniy manzarasi va mexanizmini ilmiy yoritilishi tarixiy haqiqatni tiklashga va tarixiy bilimlarimizni boyitishga yordam beradi. Yaqin davrlargacha mazkur mavzuni o'rganishga bag'ishlangan fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi tufayli ham "quloq qilish" siyosati, uning fojiali oqibatlari, surgun qilingan, qatag'onga uchragan vatandoshlarimiz, ularning begona yurtlardagi ayanchli hayoti tarixini o'rganish va yoritishning dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Nohaqdan qatag'on qilinib, o'zga yurtlarga badarg'a qilingan "quloqlar"ning nomi, achinarli qismatini aniqlash, hayoti va mehnat faoliyatini, ikkinchi jahon urushidagi ishtiroklarini yoritish tarixchilar zimmasidagi muhim vazifalardan biridir.

Mavzuning manbashunosliqi va tarixshunosliqi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston tarixining eng alamli xalqimiz boshiga juda katta kulfatlar keltirgan sovetlarning siyosiy qatag'on siyosatini o'rganishda ya'ni haqqoniy tarixni yaratishda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida tarixchi olimlarimiz tomonidan tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ya'ni ushbu siyosatni yaratish yangi ruhda milliy g'oya, milliy istiqlol mafkurasi asosida yoritila boshlandi.

Sovet tarixshunosligi davrida "quloq", "mushtumzo'r", "qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "kolxoz dushmanlari", "yot unsurlar", "kapitalistik unsurlar", "eng so'nggi eksplatatorlar", "burjua millatchilar" kabi turfa nomlar bilan atalib kelingan dehqonlarga qarshi rasman genotsid qo'llanildi. Bu haqiqatni aytishni, yozishni imkoni bo'lmagan. Kommunistik partiya va sovetlar uchun chin tarix kerak emasdi, aksincha, ular tarixni soxtalashtirishni, buzishni, imkon qadar xalqqa qarshi qaratilgan o'z siyosati, amaliyotini xalqdan yashirishga, uni soxtalashtirib maqtashga uringan. Shu bois bu davrda yaratilgan tarixiy adabiyotlarda kollektivlashtirish va u bilan bog'liq barcha tadbirlar, uning oqibatlari boshdan oyoq, sotsializm, marksizm-leninizm ruhi hukm surgan. Hukmron tuzum va uning mafkuraviy, g'oyaviy, siyosiy bosimi, tazyiqi bilan kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etishning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. – 97 б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 165 б.

haqiqiy mazmuni ochib berilmagan, manbalar tanqidiy o'rganilmagan, voqelikni chinakam aks ettiruvchi hujjatlar mahfiylik tamg'asi bilan po'lat sandiqlarda saqlangan, ulardan foydalanish imkoni bo'lmagan, haqiqiy dalillar chetlab o'tilgan, hamma narsa ijobiy baholangan, salbiy, fojeali jihatlar atayin tushirib qoldirilgan. Oqibatda o'ziga to'q, o'z tirikchiligini bemalol o'tkazadigan, tadbirkor dehqon xo'jaliklarining tugatilishi, dehqonlarning mulkdan mahrum qilinishi mudhish oqibatlarga olib kelganligi haqida tadqiqotchilar og'iz ochmay yurishga majbur bo'lingan.

Bu fojea sovet tarixshunosligida sinfiylik, partiyaviylik, baynalminallik nuqtai nazaridan turib soxtalashtirilgan, buzilgan, nashr etilgan asarlarda, himoya qilingan dissertatsiya ishlarida va ulardagi yasama, to'qima, yolg'on fikrlar sovet rejimini himoyalashga, uni har jihatdan himoya qilishga xizmat qilgan. Professor R.T.Shamsutdinov ta'kidlaganidek, "sovet tuzumi davrida nashr etilgan jamiyki adabiyot, xoh tarixiy, xoh badiiy bo'lsin, shuningdek ko'plab maqolalarda va nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarida O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohoti, ommaviy kollektivlashtirish, quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq barcha tadbirlar, voqealar, Kommunistik partiya va sovetlarning agrar siyosati ijobiy baholangan, hattoki o'zga mamlakatlarga namuna, andoza qilib tavsiya etilgan."¹

O'rta Osiyoliklarning turmush tarziga, mentalitetiga, qalbi va ongiga mutlaqo singmagan kollektivlashtirishni zo'rlik bilan o'tkazilishi partiyaning lenincha milliy siyosati tantanasi, sotsializm qurishning qishloq xo'jaligidagi g'alabasi sifatida ijobiy baholangan. Professor R.T.Shamsutdinovning monografik tadqiqotlarida, uning shogirdlari M.G'.Abdullaev, A.Mamajonov, B.M.Rasulov, M.Akbarova, X. Qurbonov, N. Xudoyorovlarning maqola, dissertatsiyalarida

tanqid ostiga olingan, sovet tarixshunosligi tanqidiy tahlil qilib berilgan.²

O'rta Osiyo tarixshunosligida birinchi bor "quloqlar" masalasidagi Kommunistik partiya va muxolifatning yangicha talqinlari R.Shamsutdinov asarida qisqacha aks ettirilgan. Kollektivlashtirish va uning fojearining eng birinchi aybdorlari Lenin, undan so'ng Stalin, Trotskiylar ekani, muxolifatda esa Zinovev, Kamenev, Ro'kov, Buxarin va boshqalarning kollektivlashtirish va uning oqibatlari haqidagi fikr-g'oyalari, qo'llagan amaliyotlari sharhlab berilgan. "quloqlar"ga birinchi bo'lib o't ochgan Leninning o'zi bo'lgani, uning ishini Stalin davom ettirgani, biroq muxolifat kuch vakillaridan Buxarin, Tomskiy, Ro'kov va boshqalar kolxoz va sovxozlar tuzishni jadallashtirishga, quloqlarga keskin hujumga o'tilishiga qarshi bo'lgan fikrlari asarda keltirilgan.

R.T.Shamsutdinovning "Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun" nomli monografik tadqiqotida O'rta Osiyo mintaqasidagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish va bu siyosiy kompaniyalarga qarshi harakatlar, qishloqdagi inqilobiy harakatlar, ayollar qo'zg'olonlari, 1930-1932 yillardagi "quloqlar" surguni, muhojirlikdagi "quloqlar", Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga surgun qilinganlar hayoti, O'rta Osiyodagi mehnat posyolkalari, "quloqlar"ning o'z yurtlariga qaytishi masalalari yoritilgan.

Uning hammualliflikdagi monografik tadqiqotida³ O'zbekistonda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish tarixining turli talqinlari, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun va ularga qarshi dehqonlar kurashi, Shimoliy Kavkazga surgun qilinganlarning fojeali hayoti katta,

¹ Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Тошкент: Шарқ, 2001. - 5-6 б.

² Шамсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сурғунидаги юртдошлар қисмати. - Тошкент: Шарқ, 2005. Абдуллаев М. Ўзбекистонда советларнинг "қулоқ" қилиш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари (1929-1945йиллар). номзодлик дисс. автореферати. -Т., 2002; Мамажонов А. Коллективлаштириш жараёнида Ўзбекистон қишлоқларидан Шимолий Кавказга сурғун қилинганлар. номзодлик дисс. автореферат. -Андижон, 2005. Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сурғунидаги юртдошлар қисмати. Номзодлик дисс. автореферати. – Т., "Шарқ", 2009. ва бошқалар.

³ Шамсутдинов Рустамбек, Мамажонов Алишер. Шимолий Кавказ сурғунидаги юртдошлар қисмати. – Т.: Шарқ, 2005. – 335 б.

keng, xilma-xil manbalar asosida yoritilgan. Asarda, avval e'lon qilinmagan, O'zbekiston, Moskva, Stavropol o'lkasida mahfiylik tamg'asi bilan saqlangan arxiv hujjatlari hamda so'nggi vaqtda xorijda nashr yuzini ko'rgan hujjat va materiallardan keng foydalanilgan va ular birinchi bor ilmiy iste'molga kiritilgan.

“Tarixning xasratli sahifalari”¹ kitobining to'rtinchi bo'limi siyosiy qatag'on qurbonlari tarixiga bag'ishlangan. Unda Shimoliy Kavkazga surgun qilinganlar (R.Shamsutdinov, A.Mamajonov), Shimoliy qozog'istonga surgun qilinganlar (R.Shamsutdinov, M.Akbarova), qatag'on qilingan mulkdorlar fojeasi (R.Shamsutdinov, B.Rasulov, F.Xolnazarova), quloqlarning takroran qatag'on qilinishi (R.Shamsutdinov, B.Rasulov), Muhojirlikdagi yurtdoshlar qismati (R.Shamsutdinov, F.Xolnazarova, M.g'anieva) maqolalari joy olgan, mavzuning turli yo'nalishlari bo'yicha yangi materiallar, yangicha talqinlar kiritilgan.

“Vatanimiz o'tmishidan”² to'plamidagi maqolalardan Kollektivlash-tirish qurbonlari haqida yangi ma'lumotlar (R.Shamsutdinov), Marxamat tumanida kollektivlashtirish va “quloq” qilish tarixidan (M.Abdullaev), Qatl etilgan andijonlik sobiq “quloq”lar (R.Shamsutdinov, N.So'fixo'jaeva), O'zbekiston “mehnat posyolkalari”dagi “quloqlar”ning takroran qatag'on qilinishi (R.Shamsutdinov, N.Xudoyorov) maqolalarini qayd etish lozim.

1937-1938 yillardagi “Katta terror”, yoki “quloqlar operatsiyasi” qirg'inida hammadan ko'ra ko'proq quloqlar azob tortgan, shu bois “Katta terror” aybdorlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Rossiya Federatsiyasida mazkur mavzu keng va atroflicha yoritilgan. Ana shu mavzu bo'yicha mavjud bo'lgan turli qarashlar Rustambek Shamsutdinovning kitobi³da sharhlab, tahlil qilib berilgan.

Kitobda 1937-1938 yillardagi fojeada birgina Stalinni aybdor qilish va butun keng ko'lamdagi va o'ta og'ir, mudhish fojeaning faqat Stalin nomi bilan bog'lash adolatdan emasligi, bunda trotskiychi-zinovevchi muxolifat bloki, xalqaro sionist va massonchilar, “beshinchi kolonna”, uzoqdan beri rahbarlik lavozimlarini egallab kelayotgan partiya funktsionerlari ekani ko'rsatilgan.

Ishning manbalar tahlili qismida sharhlangan D.A.Alimova tahriri ostida nashr etilgan uch jildlik “O'rta Osiyo qishloqlari fojeasi: kollektivlashtirish, quloq qilish, surgun” nomli hujjatlar va materiallar to'plamida ham mazkur mavzu tarixshunosligining ayrim qirralari ochib berilgan. Ushbu to'plamning birinchi jildi Kirish qismida (D.A.Alimova, N.F.Karimov, R.T.Shamsutdinov) va uchchala jildning 1-5 qismlari bo'yicha (R.T.Shamsutdinov, D.A.Alimova) qisqacha tarixshunoslik masalalari talqin qilingan. Ularda zo'rlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish va dehqonlar ommasining antikolxozchilik xarakati, quloqlashtirish nima va u qanday amalga oshirilgan? Dehqon oilalarining deportatsiya qilinishi, O'rta Osiyo, Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy qozog'istondagi mehnat posyolkalari, surgun qilinganlarning taqdiri, “Quloqlar”ning takroran qatag'on qilinishi, Ikkinchi jahon urushida mehnat ko'chkindilarining ishtiroki, “Quloqlar”ni ozod qilinishi mavzularini o'rganilish holati va bundan keyin tadqiq qilinadigan masalalar ko'rsatib berilgan. Hali o'z echimini topishi lozim bo'lgan yo'nalishlar, masalalarga urg'u berilgan. D.Alimova bilan R.Shamsutdinovning e'lon qilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish tarixi va tarixshunosligini o'rganishga doir maqolasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Darvoqe, ushbu masalani yoritishda “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi tomonidan olib kelingan arxiv hujjatlari va materiallari to'plamlari, prof. R.Shamsutdinov tomonidan va uning rahbarligida yaratilgan tumkum adabiyotlar hamda internet tarmog'idagi, www.uzmeros.uz/books.hph. - “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi saytida keltirilgan qator kitoblari asosiy manbalar sifatida foydalanildi.

Kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun qilish tarixi yuzasidan arxiv hujjatlari to'plamlarining nashr etilishi Rossiya Federatsiyasida yaxshi yo'lga qo'yilganini va sobiq Ittifoq

¹ Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. –Т.: Шарк, 2006. – 303 б.

² Ватанимиз ўтмишидан. –Андижон: Andijon-nashriyot-matbaa, 2007. – 200 б.

³ Шамсутдинов Рустамбек. Катта террор айбдорлари ҳақида янги талқинлар. -Андижон: Университет, 2007. – 87 б.

davrida mahfiy saqlanib, tadqiqotchilar uchun man qilingan hujjatlarni ilmiy iste'molga solishda qilingan ibratli ishlarni qayd etish lozim. "Sovet qishlog'i fojeasi: kollektivlashtirish va quloqlashtirish"¹ nomli 5 jildlik (ayrim jildlar ikki kitobdan iborat) hujjatlar va materiallar to'plami 1999-2007 yillar mobaynida nashr etilishi katta voqea bo'ldi.

1937-1938 yillardagi "Katta terror", yoki "quloqlar operatsiyasi" qirg'inida hammadan ko'ra ko'proq quloqlar azob tortgan, shu bois "Katta terror" aybdorlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Rossiya Federatsiyasida mazkur mavzu keng va atroflicha yoritilgan. Ana shu mavzu bo'yicha mavjud bo'lgan turli qarashlar 2007 yilda yaratilgan kitob²da sharhlab, tahlil qilib berilgan.

1937-1938 yillardagi katta terrorning asosiy zarbalari, eng avvalo, "sobiq quloqlar"ga qaratilgan. Shu bois ham unga nisbatan "quloqlar operatsiyasi" degan tushuncha yuzaga kelgan. XX asrning 20-30 – yillarda quloqqa tortilgan, qamoqqa hukm etilgan, surgun qilingan "sobiq quloqlar" 1937-1938 yillarda takroran qatag'on etilgan. Ularning bir qismi uchlik qarorlari bilan otib yuborilgan, yana bir qismi 8-10 yil muddat bilan mehnat tuzatuv lagerlariga hukm qilingan.

Ana shu "sobiq quloqlar"ni nomma-nom aniqlash, ularning taqdirini aniqlash borasida O'zbekistonda tegishli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirning o'zida faqat 1937 yilda uchlik qarori bilan qatag'on qilinganlar haqida 3 ta kitob nashr etildi.³

Mavzu tarixshunosligini ochib berish uchun, hali bajarilishi kerak bo'lgan ishlar etarlicha. Chunki, ushbu mavzu nafaqat har bir mamlakat miqyosida, balki viloyatlar, tumanlar kesimida ham alohida o'rganilsa muddao bo'ladi. Chunki, tarix uchun qisqagina 20 yillik tarixni (1929-1950 yillar) to'laqonli ochib berish, uning mazmun mohiyati, oqibatlarini xalqimizga etkazish uchun tarixchilar va ayniqsa biz kabi yosh tarixchilar oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, seminarlar, konferentsiyalar uyushtirish, xorijdagi adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, shuning natijasida bu mavzuning manbaviy bazasi va tarixshunosligi yanada boyitish maqsadga muvofiqdir.

Masalaning talqin va tasnifi shuni ko'rstadiki bugungi kunda ushbu masala ko'plab tarixchilarimiz tomonidan keng o'rganilmoqda. Biroq qatag'on tig'iga uchragan shaxslarning alohida-alohida xolda olib o'rganilgan tadqiqotlar kam. Jumladan, Norin tumanidan qatag'onga tortilgan yurtdoshlarning ham. Shu bois ushbu mavzuni Bitiruv Malakaviy ishi mavzusi qilib tanlab oldik.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni tuzilishi kirish, uch bob va xulosa qismlaridan iborat. Shuningdek, unda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilovalar ham keltirilgan.

Birinchi bob "Norin tumani «Cho'ja», «To'da» va «Tumor» qishlog'larida sovet xukumati tamonidan amalga oshirilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish va uning oqibatlari» deb nomlangan. Ushbu bobda Norin tumani «Cho'ja», «To'da» va «Tumor» qishlog'larida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati va uning fojialari yoritib berilgan.

Ikkinchi bob esa "1937-1938 yillarda quloqlar operatsiyasi, "Katta terror"ning Norin tumanida amalga oshirilishi» deb nomlangan. Ushbu bobda quloqlar operatsiyasi, "Katta terror"ning Norin tumanidagi ko'rinishi ya'ni norinlik qatag'on qurbonlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Uchunchi bob "Katta terror" davrida qatag'on qilingan Qosimov Do'stmirza, Toshxo'jaev Xaqqul, Egamberdiev Sharipboy, Rustamov Aslanlarning hozirgi avlodlari deb

¹ Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. Документы и материалы в 5 томах. 1927-1939гг. гл. ред.: В.Данилов, Р.Маннинг, Л.Виола (главные редакторы). Сост: В.Данилов, М.Кудюкина и др. - Москва: РОССПЭН, 1999; Том 5. Книга 2. 1937-1939гг. Москва: РОССПЭН, 2006.

² Шамсутдинов Рустамбек. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. -Андижон: Университет, 2007. –Б.87.

³ Шамсутдинов Рустамбек. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5ноябрь). Иккинчи китоб. –Т.: Шарқ, 2007. –495 б.; "Репрессия" 1937-1938гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э., Мамажонов А, Дўсматов Э. –Т.: Шарқ, 2007. –495 с.; "Репрессия" 1937-1938гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Э.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарқ, 2008. –573 с.

nomlanib, bu bobda qatag'on qurboni Qosimov Do'stmirza, Toshxo'jaev Xaqqul, Egamberdiev Sharipboy, Rustamov Aslanlarning xayot yo'li taqdiri va qismati keng yoritib berishga xarakat qilingan. Shuningdek, ushbu bobda qatag'onga tortilgan norinliklarning hududiy, ijtimoiy, milliy tarkibi prof. R.T.Shamsutdinov asarlari vositasida o'rganilib, tizimga solinib, tahlil qilib o'tilgan. Siyosiy qatag'onning halq ommasiga keltirgan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy oqibatlari yoritilib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida o'rganilgan masalalar bo'yicha yakuniy xulosalar chiqarilgan, respublikamizda bugungi kunda siyosiy qatag'on siyosati oqibatlari tarixini o'rganishning istiqbollari haqida amaliy takliflar bildirib o'tilgan.

1. Norin tumanida kollektivlashtirish, qulogga tortish va uning oqibatlari

1929 yil oxiridan boshlangan kollektivlashtirish, dehqonlarning asosiy ommasiga nisbatan zo'ravonlik va majbur qilishlik, qo'rqitish, repressiya, qatag'on qilish sharoitida olib borildi. Kolxoz qurilishi juda ham ziddiyatli tarzda rivojlanib bordi. Bir tomondan haqiqatdan ham kambag'al-batraklarning bir qismini kolxoz uchun ixtiyoriy harakat qilishlari ma'lum shaklda yuz bergan. Ammo ikkinchi tomondan ma'muriy bosim, tazyiq, zo'rlash, o'rtahol dehqonlarni «qamchilash», orqali kollektivlashtirish yo'liga tazyiq bilan tortish jarayoni kechgan. Bunday bo'lishiga ko'p jihatdan 1929 yil 7 noyabrda «Pravda»da I.V.Stalinning «Buyuk burilish yili» nomli maqolasi ham sabab bo'lgan edi. Maqolada real hayotiy voqelik va dalillarga qarama-qarshi tarzda bir qator rayonlarda dehqonlar ommasining asosiy qismini eski, kapitalistik taraqqiyot yo'lidan yangi sotsialistik taraqqiyot yo'liga burib yuborishga erishildi, dehqonlarning o'zida tub burilish yuz berdi, dehqonlar o'z orqasidan kambag'al va o'rtahollarning keng qatlamini ergashtirish, uyushtirishga erishdilar degan hom, hayoliy fikrlar bayon qilingan edi.

Aslida esa o'shanda dehqonlar ommasi ongida hali kolxozlar foydasi uchun burilish mutlaqo sodir etilmagandi. Bunday o'zgarish o'rtahollar u yoqda tursin, hatto kambag'allarning ko'pchiligida ham yuz bermagan edi. Rasmiy statistika ma'lumotiga qaraganda 1929 yil 1 oktyabrida kolxozlar safida dehqon xo'jaliklarining umumiy miqdorining atigi 7,6 foizigina bor edi holos. Bu degani, barcha dehqon xo'jaliklarining 35 foizini tashkil qilgan.¹

Kambag'al-batrak xo'jaliklar kolxozga kirmagan edi. Hatto, bordi-yu, kolxozlar faqat kambag'al va batraklardangina tuzilgan edi, deb qaraladigan bo'lsa, u holda o'sha kolxozlarga kirgan 7,6 foiz kambag'al-batraklarning to'rtidan bir qismini tashkil etgan edi. Shuning uchun Stalinning «dehqonlar kolxozga qarab yo'l oldi, butun qishloqlar, volastlar, rayonlar» kolxozga kirdilar deb aytgani haqiqatdan tamomila uzoqda edi. Stalinning ana shu fikridan partiya ana «sotsialistik frontning eng og'ir jabhasida hal qiluvchi g'alabani qo'lga kiritdi» degan yolg'on tushunchaga kelgan edi.

VKP(b) Markaziy Komitetining 1929 yil noyabr plenumi kollektivlashtirish sur'atini har jihatdan tezlashtirish, jadallashtirishga va bu jarayonning borishiga bevosita ta'sir qildi. Kolxoz qurilishi masalalari muhokama-qilingan bu plenum asossiz ravishda optimistik ruhda o'tgan, arzimasi kichik yutuqlar haspo'shlanib maqtalgan, kollektivlashtirishdagi kamchiliklar va qing'ayishlar inkor etilgan ruhda o'tgan.

VKP(b) Markaziy Komiteti 1930 yil 5 yanvarda «Kollektivlashtirish sur'ati va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qiladi. Unga muvofiq kollektivlashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada «sotsialistik musobaqa»ning kim o'zdi «poygasi» avj oldiriladi.

Mamlakat hududi uch guruh rayonlarga bo'linadi, qaysi hudud qachon kollektivlashtirishni tugallashi belgilab beriladi. O'zbekiston uchinchi guruhga kiritilgan bo'lib, kollektivlashtirish 1933 yil bahorida tugallanishi kerak edi. Ammo VKP(b) Markaziy Komitetining Siyosiy byurosi tomonidan O'zbekistonda kollektivlashtirish juda sekin

¹ Рустамбек Шамсутдинов Алишер Мамажонов. Шимолий Кавказга сургун қилинган юртдошлар қисмати. «Шарқ». Тошкент. 2005 йил.

rivojlanayotgani tanqid ostiga olinadi. Bu esa Markazning O`rta Osiyodagi yugurdak dastyori, bosh nazoratchisi O`rta Osiyo byurosi uchun ayni muddao bo`ladi. Shu bois u kollektivlashtirish va bu bilan parallel ravishda quloqqa tortish kampaniyasini avj oldirib yuboradi. O`rta Osiyo byurosi mintaqadagi milliy kompartiyalar ustidan hukmronlik qilardi. Shu bois Markaz direktivasini O`zbekiston Kompartiyasi va hukumati qanchalik zudlik bilan «qoil-maqom» qilib bajarsa, shunchalik O`rta Osiyo byurosining Moskva oldida yuzi yorug` bo`lardi. Natijada Markaz direktivasini bajarish niqobi ostida O`zbekistonda ham kollektivlashtirish jadal sur'atlar bilan, mahalliy, milliy, tarixiy sharoitlarni hisobga olmagan holda, bir qator buzishlar, qing`ayishlar, hato va nuqsonlar orqali amalga oshirildi.

VKP(b) Markaziy Komiteti O`rta Osiyo byurosi 1930 yil 28 yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog`liq tadbirlar to`g`risida qaror qabul qiladi. Shundan O`zbekistonda kolxozlashtirish va quloq qilish kampaniyasi kuchaygandan kuchayadi. O`sha qarorda «kollektivlashtirish uchun kambag`al, o`rta hol, keng dehqonlar ommasining harakati inkor etib bo`lmas dalil va qishloq xo`jaligini rekonstruktsiya qilish va yuksaltirishning kuchli tayanchi bo`lib qoldi»<sup>1</sup> deyilgan g`irt asossiz, sub'ektivistik fikr qaror maqomida ilgari suriladi.

Qarorda kolxozchilik harakati ko`p jihatdan qishloq xo`jaligini tez sur'atlar bilan texnikaviy (traktorlarni, murakkab qishloq xo`jalik mashinalarini joriy etish) jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi, dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga kollektivlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar etildi, degan ko`zbo`yamachi, noreal g`oya ilgari surilgandi.

Ana shu «ommaviy harakat» degan aqida asosida yoppasiga kollektivlashtirish o`tkaziladigan rayonlar ham belgilab beriladi. Unga ko`ra, jumladan O`zbekistonning Farg`ona vodiysi rayonlarida yoppasiga kollektivlashtirish o`tkaziladigan bo`ladi.

Jumladan, Norin tumanida yoppasiga kollektivlashtirish siyosati amalga oshirila boshlandi. Norin tumanida ham 1930 yil 21 fevraldagi ma'lumotga asosan mavjud bo`lgan 14022 ta dehqon xo`jaligidagi 33600 gektar ekin maydonini 13181 xo`jalikka yoki 30240 gektari kolxozlarda, qolgan 3360 gektar ekin eri esa 841 ta xo`jaliklarda qolishi rejalashtirilgan edi. Bunga asosan 1930 yil fevral oyidan boshlab, boy va boshqa xo`jaliklar negizida kolxozlar tuzila boshladi.²

Tumandagi qishloqlarda bu ish osonlikcha amalga oshirilgani yo`q. Ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, tumanni Kata O`lmas qishlog`i kambag`allaridan 73 kishi 1930 yil 4 mart kuni tuman soveti ijroqumiga o`rta hol dehqon va mullalarni haq-huquqlarini tiklab berishni so`rab namoish tashkil etganlar. Ularning barchasi xukumat tomonidan jazolandi. Bunday holatlar Bo`zo`lmas, Xo`jaobod qishloqlarida ham ro`y bergan. Sababi, shoshma-shosharlik bilan o`tkazilgan majlislar xalqni jamoalashtirish siyosati bilan to`liq tushuntira olmay o`tkazilganligi uchun, bugan tuzilgan kolxozlar bugun yoki ertaga tarqab ketabergan. Buni tashkil etishga mas'ul kishilar esa jazolana bergan. qishloqlardagi er egalari boylar o`rta hol dehqonlar erdan, mol mulkidan ajralib qolayotganliklari uchun aholini bu yo`ldan qaytarishga, ularni har hil yo`llar bilan, xatto o`ldirish kabi mudxish ishlarni ham amalga oshirib, kolxozlardan chiqishga majbur etganlar. Bunday voqea Katta O`lmas, Norinkapa, Xo`jaobod qishloqlarda amalga oshirilgan.³

Qishloqlarda tashkil topgan yakka xo`jalik tuzumi endi tuzilajak yangi tizim-artel (kolxoz) tizimiga qo`yilgan qadam bo`ldi. Bu er-suv islohatidan so`ng er-mulkning kambag`al chorikorlarga o`tishi edi. Islohat natijasida 40 desyatina va undan ortiq erga ega bo`lgan 50ga yaqin xo`jalik butunlay tugatildi. 100 ga yaqin xo`jalikning ortiqcha eri tortib olindi. Tuman bo`yicha 3,5 ming gektar er, 300 bosh ot-ulov, omoch, arava (ikki g`ildirakli qo`qon arava) va

¹ Рустамбек Шамсутдинов Алишер Мамажонов. Шимолий Кавказга сургун қилинган юртдошлар қисмати. «Шарк». Тошкент. 2005 йил.

² Трагедия среднеазиатского кишлака. Том 1. Ташкент: «Шарк», 2006. С.74.

³ Трагедия среднеазиатского кишлака. Том 1. Ташкент: «Шарк», 2006. С.77,80.

boshqa asboblarga musodara qilindi.¹ Xatto, ko'p joylarda boy dehqonlarni uylari ham musodara qilinib, badarg'a qilindi. Yer va musodara qilingan ot-ulovlar choriklarga, eng yaxshi chavandozlik otlari va uylari islohat o'tkazayotgan azamatlarga tegdi. Choriklarga musodara qilingan erlardan besh tanobdan o'ttiz tanobgacha bo'lib berildi. Shunga yarasha ot-ulov ho'kiz bilan ta'minlandilar.

Yer-suv islohati ular ta'biricha muvaffaqiyatli yakunlangani bilan qonli to'qnashuvlar ham vujudga keldi. Yeridan, ot-ulovidan uyidan ajralgan mulkdorlar qarshilik ko'rsatar edilar. Bu qonli qarshiliklar ular uchun qamoq bilan tugardi.

O'sha vaqtlarda Toshkentdan ma'lumotli vakillar, tez-tez kelib-ketib turishar, rayon rahbarlariga topshiriq-maslahatlar berishib, "qizil choyxonalarda" odamlar bilan "yorqin kelajak" haqida suhbat o'tkazishardi. Hukumatga boylar, din peshvolari-dushman, chorikor, ishchilar-do'st, deyishardi.

Lekin, ular o'zlarini shaxsiy manfaatidan jamiyat manfaatini yuqori qo'yib, hech narsa talab qilmadilar. O'sha davr rahbarlari inqilob fanatiklaridan tashkil topgan edilar.

Yer-mulkidan ajragan mahalliy boylar yangi tuzumga qarshi mafkuraviy kurash olib borishni to'xtatmadilar. Hukumatni omma orasida obro'siga putur etkazish maqsadida dindor ulamolar bilan birikib, islom aqidalariga ishonitirish uchun "Shayton yo'ldan ozdirgan"larga abadiy do'zax muqarrarligini tinmay tashviqot qilsalar, sobiq sovetlar tarafdorlari esa Marks, Engels, Lenin, Stalindek "dohiy"lari borligini, ular ko'rsatgan yo'l sotsializm g'alabasi-kommunizm qurish bilan targ'ibot qilardilar. Boylar, dindorlarni esa yot, unsur, "xalq dushmanlari", deb tashviqot va targ'ibot qilishardi. Shunda ham omi, sodda dehqonlar "Shirkat", "qo'shchi sayuz"-larga ishonchsizlik bilan qarardilar.

1926 yilda har bir qishloqda "Batrakkom" (batraklar qo'mitasi) tashkilotlari tuzilgan edi. Uning vazifasi sovet hokimiyati tutuayotgan yo'lga dehqonlarni ishonitirish va ergashtirish, hokimiyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga erishish bo'lgan. Buning ustiga endi 12 yil yakka xo'jalik sifatida va o'rtahol dehqon foydalanayotgan yerlarni qaytarib olib, ularning bir nechtasini birlashtirib va artel tashkil qilish bo'lgan.

Yakka xo'jalik asosida ish yuritish, tabiiyki o'tgan davrda "umumiy tenglikka", dehqonlar turmush darajasida tengsizlik vujudga kelgan. qay bir yakka xo'jalik ot-ulov va o'zlariga qarashli ishchi kuchlari yordamida erni barvaqt shudgorladi, begona o't-o'lanlarga qarshi kurasha oldi va tuproqni go'ng bilan oziqlantirdi. Zovur qazib, er zahini qochirdi, xullas, daromadni ko'proq olgan bo'lsa, iqtidori pastroq, dangan yoki eri zahkash, qamish o't—o'lan bosgan xo'jaliklar daromad olomaganlar. Asosiy sababi-davlat soliq, buyruq, tashviqot tizimi qishloq xo'jalik mahsulotlarini jamg'arishda, markazni ta'minlashda qiylana boshlagan.

Ammo quloqlar masalasiga oid hech narsa deyilmas, natijada keyinchalik quloqlar ketidan kelayotgan o'rtahol dehqonlar ham majburiyat tayog'idan kaltak eganlar. qishloqda baribir sinfiy kurash alangalantirildi. GPU faol ishtirok etib, katta qurbonlar evaziga 1936 yillardagina bu alanga o'chirildi. Shunday qilib dehqonlarga munosabatda eng yaxshi xislatlar-mehnatsevarlik, erni sevish, jamiyat qoldiqlari psixologiyasiga tayanmasdan, xukumat taraqqiyotiga tayanib bu jarayonni olib borgan. O'sha vaqtlarda agrar iqtisodchi Chayanov va G.Retnerlar kooperatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi jahon qishloq xo'jaligidagi mehnat kooperatsiyalari haqida ilmiy-ommabop asarlar yozishgan edi. Ular qatag'on yillarida qatag'on qilinganlar. D.Volkogonov: "Doxiy... faqat bir narsa, ya'ni universal usulbda o'z maqsadini amalga oshirish zo'ravonlik bilan amalga oshirishini bilar, busiz zo'ravonliksiz, Stalin bo'lolmas edi", deb yozgan edi.²

Kollektivlashtirish boy va o'rtahollarni qamoq, surgun etish 1935 yilgacha amalga oshirilgan bo'lsa, 1936 yildan yangi "siyosiy dushmanlar" Trotskiy, Kamenev, Zinovev, Buxarinchilar deb (so'llar) qatag'oni boshlandi. 1938 yilda millionlab fuqarolar "millatchilikda"

¹ Маҳмуджон .Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан". 2010. Б.37.

² Маҳмуджон .Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан". 2010. Б.39.

ayblanib, jismonan yoʻq qilindi. 1930-1936 yillarda zoʻr mashaqqat bilan kunni tunga ulab kollektivlashtirish, yaʼni artellar tizimi, savodsizlikka qarshi kurashib, 1927-1929 yillar mobaynida quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosati boshlanib ketdi. Aslida, boylar bilan oʻrtahol dehqonlar (bir ot, bir sigir, besh qoʻy, eshak aravasi boʻlgan) sinfini tugatish faqat kambagʻallar mamlakatiga aylantirish siyosati edi. Etti desyatinadan kam eri boʻlganlar islohatga kirmay qolgan edilar. Mulla, eshon, toʻralarning erlari masjid va madrasalarning voqif erlari ham musodara qilina boshladi. Xududdagi dastlabki artel xoʻjaliklari xuddi shunday erlar xisobiga tashkil topgan. Birinchi mexanizatorlardan biri mehnat faxriysi Murotali Rahmonov shunday xikoya qiladi: “1929 yilda Boʻzoʻlmas qishlogʻida “Oq oltin” arteli tashkil etilgan. U atiga 27 ta dehqon xoʻjaligidan tarkib topgan. Kolxozga Bozor Ahmedov rais qilib saylangan. Oʻsha vaqtlarda bir yoqda artel tuzilsa, ikkinchi yoqdan tarqab ham ketavergan. Oradan bir necha kun oʻtkach, Toshkentdan sobiq Oʻzbekiston Kompartiyasining vakili Xodi Fayziev kelib, kolxozlashtirishni tezlashtirishni qatʼiy masala qilib qoʻygan. Shu kuni yangi xoʻjalik- “qizil Oʻlmas” kolxozi tashkil etildi. Unga Toshmamat Xudoyqulov rais etib saylanadi. Kolxoz hisobida 7 ot, 2 ta qoʻsh xoʻkiz, 2 ta arava, 2 omoch va 1 ta moli boʻlgan, xolos. Kolxozda oʻsha yili paxta xosildorligi 8 sentnerga etkazilib, oʻtgan yillarga nisbatan koʻproq foyda olinib, oʻz kolxozchilarga tarqatilgan.”¹

1930 yilning bahori va kuzida “Pravda”, “Davlat”, “Chambil” kolxozlari tashkil etildi, ularga Abduvaxob Azimov, Jalil Nishonov, Boymurod Xudoyqulovlar rais boʻlganlar. 34 xonadonni birlashtirgan Oqtovlida “Norin” kolxozi tuzildi va rais qilib Abdulkarim Qozoqov saylandi.

1930 yildan Sirmoq qishlogʻida “Plan bajarish” va SAKU kolxozlari tashkil etildi. Katta Jaydoq qishlogʻida “Jaydoq”, “Rabochiy”, “Guliston”, “Komsomol”, “qizil oy”, “Toʻlqin” nomli kolxozlar tuzildi. “Komsomol” kolxoziga jaydoqlik Mamajon Mirzaqulov rais boʻlib uzoq yillar ishladi. Oʻzi savodsiz (qoʻl qoʻyishni xam bilmas edi) u halol, gʻirt maʼmuriyatchi-tashkilotchi, kolxoz hayoti bilan uning hayoti birlashib ketgan edi. Uni kolxozchilar Mamajon “injiq” rais deb atashardi. U 1955 yilgacha barcha yuqoridagi kolxozlarni birlashtirib, rais boʻlib ishlagan. Shuningdek, tumanda xotin-qizlardan birinchi kolxoz raisi boʻlib ishlagan Rizvonbibi Choʻlponovadir.

Kollektivlashtirishni VKP (b) Markaziy qoʻmitasi qarori bilan 1933 yilgacha oʻtkazish muddati belgilangan boʻlsada, mahalliy rahbarlar, kollektivlashtirish surʼatini har tomonlama jadallashtira boshladilar. Bu jarayonning xaddan tashqari jadallashtirilishida oʻrtahol dehqonlarning xoʻjalik yuritishi xisobga olinmagan. Oʻrtahol dehqonlarni quloqlarga aylanishiga imkon tugʻdirilgan. Mustaqil ravishda xoʻjalik yuritish imkoniyatiga ega boʻlmagan kambagʻal dehqonlarning bir qismi yakka xoʻjalik tartibida batralkarga aylangan edilar.

Shunday qilib, 1931 yil 20 iyun holatiga Norin tumanida 223 ta kolxozlar tuzilib unda 15923 xoʻjalikdan 10718 tasi kollektivga jalb etilgan. Bu esa 57,3% tashkil etgan. Ularda jami 38104 gektar maydondan kolxozlarga 15382 gektari yoki 40,4% berilgan.

Kollektivlashtirish natijasida boylarni mol mulki va ishchi hayvonlari ham musodara etilib, kolxozlarga boʻlib berilgan. Buni quyidagi maʼlumotdan koʻrishimiz mumkin. Norin tumanida 1931 yil 20 iyun holatiga lalmi erlar 1800 gektar shundan kolxozlarda 832 gektari yoki 46,2% boʻlib ularda tuman boʻyicha otlar 5116 bosh shundan kolxozlarda 2412 bosh, yoki 47,1%. Xoʻkizlar 2443 bosh, shundan kolxozlarda 610 bosh yoki 25% boʻlgan. 7 bosh tuya esa hali musodara etilmagan.²

Quloqlar sinfini tugatish yoʻli bilan omilkor dehqonlar sinfi tugatildi. Natijada kollektivlashtirish jarayonida qoʻpol xatolarga yoʻl qoʻyildi. Bundan dehqonlarning bir qismi jabrlandilar.

1930 yil martida qishloq xoʻjalik artelining namunaviy Ustavi matbuotda eʼlon qilindi. Dehqonlar kolxozlarga kirganda nimalar umumlashtirilishini, shaxsiy mulk tariqasida yoki

¹ Махмуджон Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан”. 2010. Б. 40.

² Трагедия среднеазиатского кишлака. Том 1. Ташкент: “Шарк”, 2006. С.260-264.

shaxsiy foydalanishda esa nimalar qoldirilishini Ustav (nizom)da aniq belgilab berildi. Ustavga ko'ra dehqonlarning barcha chek erlari kolxozning kollektiv tasarrufidagi yagona er fondiga qo'shib yuboriladigan bo'ldi. Barcha ish hayvonlari, xo'jalik imoratlari, kollektiv xo'jalikni yurgizish uchun kerakli asbob-uskunalar umumlashtirildi. Cheklangan miqdordagi tomorqa uchastkalari (bo'lak) shaxsiy foydalanishda ketmon, o'roq, muayyan miqdordagi sigir (bitta) va qo'y-echki, uy parrandalari esa shaxsiy mulk qilib qoldirildi.

Kolxozlarni mustahkamlashda yordam berish uchun davlat ularga yaqindan yordam ko'rsatib: hayvonlar uchun to'lanadigan soliqlardan ikki yilgacha ozod qilindi, moliyaviy yordamni kuchaytirilib kredit berila boshladi. Muxtoj kolxozlarga urug'lik qarzga berildi. Mashina-traktor stantsiyalari qurilishi jadal sur'atlarda olib borildi.

Bu tadbirlarning hammasi dehqonlarda qanoat xosil qilishga va ularni ishonch bilan astoydil mehnat qilishga undadi.

1928 yilda dala ishlarining deyarli 97 foizi qo'lda bajarilar edi. Shuning uchun mehnat unumdorligi o'ta past bo'lib, mahsulot etishtirish, rivojlanish imkoniyatlari chegaralangan edi. Paxta xosildorligi gektariga 8-10 sentnerni tashkil qilgan.

Paxtachilikda barcha dala ishlari, ya'ni paxtani terib olish, quritish, qoplash, yuklash, ko'sak chuvish 100 foiz qo'lda bajarilgan. Paxta etishtirish qishloq xo'jaligining eng og'ir sohasi hisoblanadi.

Qishloqlarda kollektivlashtirishdan maqsad qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish, mexanizatsiyalashtirish bo'lgan. Shuning uchun har bir rayonda MTSlar tashkil qilish jadal sur'atlarda olib borilgan.

1929-1933 yillarda rayonda jami 112 ta mayda artellar tashkil qilindi. Birgina quyiltepa xududida 8 ta, Katta Jaydoqda 8 ta, To'da qishlog'ida 6 ta, Norinkapada 11 ta artel tuzilgan.

Bu kollektivlashtirish davrida ham artelga kirishdan bosh tortib, hali ham ikkilanib turgan yakaa xo'jaliklar anchagina edi. Xuddi shunday murakkab bir sharoitda sovet tuzumiga qarshilar, yanada keng ko'lamda targ'ibot ishlarini olib borishdi. Kollektivlashtirishga qarshi "mish-mish" va anti tashviqot quyidagicha edi: "Hamma qirq quloqlik bir qazondan ovqat eydi, qirq gazlik ko'rpada yotadi. Oq yog' xarom, seni kolxoz harom bilan boqadi" kabi uydirmalardan iborat bo'lgan.¹

Bu gaplarga ishongan ba'zi sodda dehqonlar arteldan chiqib ketishga urinishdi. Artelga qo'shgan ot-aravalarni talab qilib, oyoq tirab turib olishdi. Jamoatchilik o'rtasida artelga yozilmaganlarni maqtash, jamoaga a'zo bo'lganlarni esa tezda "choh"dan chiqib ketishga undan avj olib ketdi. Bari-bir qishloqda yangi tuzum g'olib kelib, 1935 yilda batamom kolxozlashib bo'ldi. Gazetalar, hukumat rahbarlari olib borgan kolxoz tizimini afzalliklari haqidagi tashviqotlari o'z natijasini bera boshladi.

Ya'ni ular "Haqsizlar huquqi tiklansin", "Qishloq sovetlari qoshida qamalganlar ozod qilinsin", "Erkin savdoga ruxsat berilsin", "Kolxozlar tarqatib yuborilsin va ish hayvonlari qaytarilsin", "Qishloq sovetlariga qayta saylovlar o'tkazilsin" kabi talablarni qo'yganlar. Suhbatda kolxozlarni tarqatib yuborish to'g'risida ko'rsatma berilgandan so'ng olomon tarqala boshlagan."²

Qishloq axolisining bunday ommaviy chiqishlari 12 mart kuni 12ta rayonida yuz bergan. Jumladan Norin tumanida ham.

1930 yil 13 mart kuni Xaqqulobod qishlog'ida 1000 kishilik olomon "Yo'qolsin kolxozlar", "Yo'qolsin sovetlar hokimiyati" degan shiorlar bilan rayon markaziga yo'l olgan. Olomon safi kengayib 2500 kishigacha etadi va ular kolxozlarni tarqatish, erlarni qaytarib berish, qamoqqa olinganlarni ozod qilish, xaqsizlar huquqini tiklash, diniy erkinlikni ta'minlash kabi talablarni qo'yganlar. Bunday g'alaenlar 15 mart kuni Paxtaobod rayonidagi Shuvazar qishlog'ida ham yuz berdi. Umuman, 1930 yilning 25 fevralidan 17 martgacha Andijon okrugining rayonlarida

¹ Махмуджон Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан". 2010. Б. 42.

² Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. 140-142- бетлар.

qishloq axolisining 36ta ommaviy norozilik harakatlari yuz bergan va bu harakatlarda 9373 kishi ishtirok etgan.¹

Andijonda ommaviy norozilik harakatlarining keskin o'sib borishi bilan bir qatorda respublikaning boshqa okruglarida ham Kollektivlashtirishga qarshi jiddiy chiqishlar yuz bera boshladi. OGPuning ma'lumotlariga ko'ra, respublikada bu davrda 240 marta ommaviy norozilik chiqishlari sodir bo'lgan.²

Yoppasiga Kollektivlashtirish siyosatining bunday barbod xolga kelib qolishi partiya rahbariyatini ham tashvishga solib qo'ydi. 1930 yil 2 martda «Pravda» gazetasida Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi bosilib chiqdi. Maqolada ommaviy noroziliklar uchun hamma ayblar mahalliy rahbarlarga yuklandi 1930 yilning 14 martida esa VKP(b) Markaziy Komitetining «Kollektivlashtirish harakatida partiya yo'lini buzishlarga qarshi kurash to'g'risida» qarori e'lon qilindi. Bu qarorda kollektivlashtirish harakatida «ixtiyoriylik prinsiplari» buzilganligi va «og'machiliklar» yuz bergani tan olindi.

Shuningdek, ayrim amaliy tadbirlar ham ko'rib, kollektivlashtirishni jadallashtirish sur'atlari sekinlashtirildi. 1930 yilning mart-aprel oylarida «quloq qilish» qisman to'xtatildi. Barcha rayonlarda, qishloq sovetlarida quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning ro'yxatini tekshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Bu ro'yxatga tushgan ayrim o'rta hol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi.

Biroq ko'rilgan bu tadbirlarga qaramay zo'rlik bilan tashkil qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. Andijon okrugida 1930 yil 18 martga kelib kolxozlarga kiritilgan 110,9 ming dehqon xo'jaligidan faqat 28 ming xo'jalik kolxozlarda qoldi, xolos. Bu miqdor okrug bo'yicha barcha dehqon xo'jaliklarining 23,0 foizini tashkil etar edi. Okrugning barcha rayonlarida kolxozlarda qolgan xo'jaliklar faqat 10 foizni tashkil etar edi. Respublika bo'yicha esa Kollektivlashtirish darajasi 1930 yil martidan may oyiga qadar 47,8 foizdan 27,5 foizga tushib qoldi.³

Bu xolatlarning barchasi sovet davlatining o'zbek qishlog'ida, jumladan Andijonda amalga oshirgan zo'ravonlik siyosati oqibatida yuz bergan edi. Lekin bu xolat uzoq davom etmadi. Sovetlar qisqa muddatli tanaffusdan so'ng kollektivlashtirish siyosati amaliyotining yangi to'lqinini boshlab yubordi. Ommaviy norozilik harakati tashkilotchilari va faol qatnashchilari OGPU organlari tomonidan qamoqqa olindi. Jumladan, Andijon okrugi bo'yicha aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatganlikda ayblangan 607 kishi xibsga olingan. Xibsga olinganlarning 257 nafari boylar, 31 nafari ruxoniylar, 22 nafari savdogarlar, 54 nafari o'rtahol dehqonlar, 33 nafari kambag'al dehqonlar bo'lgan, qolganlarining ijtimoiy taalluqliligi aniqlanmagan.⁴

1930 yil sentyabr oyida VKP (b) MQ barcha o'lkalar, viloyat qo'mitalari va ittifoqdosh respublikalar kompartiyalari Markaziy Komitetiga «Kollektivlashtirish to'g'risida» maktub yo'llab, unda «kolxoz harakatini yangidan qudratli yuksaltirishga erishish» uchun dehqonlar orasida faol siyosiy va tashkilotchilik ishlarini avj oldirishni tavsiya qildi. Markazning partiyaviy direktivasida kollektivlashtirish sur'atlarini qayta tiklash, qishloq axolisini kolxozlarga xaydab kirish uchun yana sinab ko'rilgan ma'muriy buyruqbozlik usullaridan ham tap tortmaslikka da'vat etilgan edi. Bu ko'rsatmalarni bajarish yuzasidan shoshilinch tadbirlar Andijon okrugida ham avj olib ketdi. 1930 yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'z KP(b) Andijon okrug komitetining VI plenumida kambag'al va o'rta hol dehqonlar siyosiy faolligini oshirish kollektivlashtirish harakatida xal qiluvchi faktor ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Bu xulosaga ko'ra Norin tumanidagi kooperativlarda va kolxozlarda kambag'al-batraklar guruhlarini keskin oshirish bashlandi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rish mumkin, 1930 yilning mart oyidan dekabr oyiga qadar 297 kambag'al-batrak guruhlarini tashkil qilindi. Ulardan 83 tasi sovet tashkilotlarida, 49 tasi matlubot kooperativlarida, 59 tasi ishlab chiqarish

¹ Ўша жойда. 154-бет

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида 352-бет

³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. 154-бет

⁴ Ўша жойда. 154-бет

hamkorligi uyushmalarida, 106 tasi kolxozlarda faoliyat ko'rsata boshladi.¹ Bu guruhlarda 556 marta yig'ilishlar o'tkazilib, bahorgi ekin masalalari, «quloq» xo'jaliklarini aniqlash va xo'jaliklarini tugatish kabi tadbirlar muhokama qilindi.

Lekin bu holatlarga qaramay kollektivlashtirish harakati to'xtab qolmadi. 1931 yil bahoridan kollektivlashtirish va «quloq» qilishning yangi to'lqini boshlandi. «Quloq» xo'jaliklarini tugatishda iqtisodiy usullardan keng foydalanildi. Ya'ni o'ziga to'q, badavlat xo'jaliklarga katta miqdorda soliq solindi, bunday xo'jaliklar kredit, ssuda va boshqa imtiyozlardan mahrum qilindi.

Agar 1930-1931 xo'jalik yilida Norin tumanining qishloq sovetlarida istiqomat qilayotgan 2777 dehqon xo'jaligi 54327 so'm 21 tiyin qishloq xo'jalik solig'i va suv haqi to'laganligiga e'tibor bersak, «quloq» xo'jaliklariga qanchalar og'ir majburiyat yuklanganligiga amin bo'lamiz. Tabiiyki, bunday majburiyat «quloq» xo'jaliklarini oxir-oqibatda xonavayron bo'lishiga olib kelardi.²

1931 yilning avgust oyida Norin tumani bo'yicha «quloq» xo'jaliklarini yangidan aniqlash tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida qishloq sovetlari bo'yicha quyidagi miqdorda yangi «quloq» xo'jaliklari ro'yxatga olingan:

Norin tumanida «quloq» sifatida ro'yxatga olingan xo'jaliklar soni tobora ortib borgan. O'sha davrga oid bir hujjatda 1930-1931 xo'jalik yilida tuman bo'yicha 158 ta «quloq» xo'jaligi borligi aytilgan. 1932 yili 13 noyabrdagi holat bo'yicha tumanda 290 nafar «quloq» xo'jaligi bo'lgan.

1931 yildan e'tiboran Norin tumanida ham «quloq» xo'jaliklarini tugatish va surgun qilish tadbirlari avj oldi. Ro'yxatga olingan xo'jaliklarning butun mol-mulki: uy-joyi, yer-suvi, uy-ro'zg'or asbob-anjomlari, chorva hayvonlari davlat foydasiga musodara qilinib, o'zlari tumandan tashqari hududlarga ko'chirib yuborilganlar. «Quloq» xo'jaliklari toifalari bo'yicha O'zbekistondan tashqariga, boshqa viloyat va tumanlar hududidagi maxsus posyolkalarga surgun qilinganlar. 1932 yilning 28 mayigacha Norin tumanidan 42 ta «quloq» xo'jaligi oila a'zolari bilan birga respublikadan tashqariga, boshqa o'lkalarga surgun qilib yuborilgan. Ularning umumiy soni 235 kishi bo'lib, ulardan 197 nafari erkaklar, 38 nafari bolalar bo'lgan. Respublikadan tashqariga surgun qilingan xo'jaliklar asosan Ukrainaning Xerson viloyatining cho'l zonalariga, Shimoliy Kavkaz o'lkasiga, qisman G'arbiy Sibir va Shimoliy Qozog'istonning o'zlashtirilmagan hududlariga joylashtirilganlar. Ikkinchi va uchinchi toifa bo'yicha «quloq» qilinganlar respublikaning ichki hududlaridagi chekka tumanlarga ko'chirilganlar. Ushbu toifa bo'yicha «quloq» qilinganlarning aksariyati Bekobod tumanidagi «Dalvarzin», Qo'rg'on tepa tumanidagi «Savay», Uchqo'rg'on tumanidagi «Norin» mehnat posyolkalariga ko'chirilganlar. Chunki bu jarayon bir necha yil, hatto kollektivlashtirish yakunlanganidan keyingi yillarda ham davom etgan. Qolaversa, bu masalaga dahldor hujjatlar ham to'la saqlanmagan. Biz arxivlarda saqlanib qolgan hujjatlar asosida 1930-1932 yillarda Norin tumani hududlaridan «quloq» sifatida ro'yxatga olingan va turli ma'muriy-huquqiy jazolarga tortilgan 190 nafar kishining nomlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bu kishilar totalitar tuzum sharoitida sovet hukumati amalga oshirgan majburiy kollektivlashtirish davrida nohaqdan jazolandilar. Ular ishbilarmonligi, tadbirkorligi uchungina «quloq» deb topilib, insoniy haq-huquqlari poymol qilindi.

Totalitar sovet davlati qulaganidan keyin sovet davri tarixining qayta o'rganilishi natijasida qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish amaliyoti eng sharmandali siyosat ekanligi ma'lum bo'ldi. Majburiy o'tkazilgan bu siyosat o'zbek xalqi boshiga cheksiz kulfatlar keltirdi, ko'plab fojealarga sabab bo'ldi.

Ommaviy kolxoz qurilishi amalga oshirilishi sharoitida ekish masalasida mutlaqo o'ylab-netmay ish ko'rilgan, tashkil bo'layotgan kolxozlarda bahorgi ekishga hech kim tayyorgarlik ko'rish bilan shug'ullanmagan.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т., «Шарқ», 2003.

² Ўша жойда.

Okrugdagi barcha bozorlar dehqonlarning sotadigan hayvonlari bilan to'lib-toshib ketgan. Hayvon narxi 30-50 foizga tushib ketgan, 200 so'm to'radigan otning bahosi 100-120 so'mga tushib qolgan. Aholini qamrab olgan vahima-sarosima shu qadar kuchliki, ayrim qishloqlarda hayvonni qarzga sotib yuborish boshlanib ketgan.¹

O'zbekistonda ham bolsheviklarning kollektivlashtirish siyosati oqibatida dehqonlar oldida ko'ndalang ikki yo'l turardi: biri kolxozga kirish, ikkinchisi quloqlar ro'yxatiga tushib qolish. Dehqonlarga nisbatan qo'llanilgan jazoning eng engil turi saylov huquqidan mahrum qilish edi. O'sha ro'yxatga tushganlar kelgusida quloq qilish uchun birdan-bir asos edi. Shu bois dehqonlar ana shu qabih ro'yxatga tushmaslik uchun kurashganlar. Buni uddasidan chiqaolmagan dehqonlar kolxozga kirishga majbur bo'lganlar. Bu esa kolxozlashtirishda qo'lga kiritilgan «yutuq» hisoblanardi. Bunday manzarani joylarda tashkil etilgan kolxozlar misolida ko'rish mumkin.

Norin tumanidan mol-mulki olinib surgun qilingan ro'yxatdagi ma'lumot bo'yicha, ular 150 xo'jalik, 659 jon, shundan musodara etilib quloq etilganlar esa 139 oila, 539 jondir.²

1932 yil 24 may xolatiga Xaqqulobod stantsiyasidan surgun qilinib jo'natilgan quloqlar ro'yxati quyidagicha bo'lgan: Norin tumanidan 192 xo'jalik, 839 jon, shundan haqiqatdan jo'natilgan xo'jalik 198 ta yoki 891 jon, shu jumladan erlar 291, ayollar 248 va bolalar 352 nafardir. Jami bo'lib tumandan 1931g'1932 yillari 310 xo'jalik yoki aholining 1,2% surgun qilingan.³

1930 yillarda kollektivlashtirish bilan bir vaqtda o'rtaxol dehqonlarni ham quloq qilish jadal sur'atlarda olib borildi. Bular qatoriga uchtepalik Azimxoji o'g'li Rustamboy ota, Mullo Qo'chqor ota, Sharipxon eshon, O'lmas qishloqlik Najim maqsim, norinkapalik Mirxon Amin, haqqulobodlik qodirqul mingboshi, Norqo'zi buvo kabilar o'sha yillarda Ukrainaning Xerson viloyatida surgunda bo'lganlar. Tiriklari ona yurtiga qaytib kelganlar. Bunday kompaniyada ularning sobiq batraklari, chorikorlar, sobiq sovet rahbar apparati, OGPU jonbozlik ko'rsatdi. Bu siyosat sobiq sovetlar davrining mudxish siyosati bo'lib chiqdi. Chunki mehnatkash, halol, o'rtahol dehqonlar sinfi bu siyosat bilan tugatildi.

Quloq qilinganlarning ba'zilari qaytib kelishdi, kelaolmaganlar yo'llarda urush boshlanib Astraxan, Stavropol o'lkalarida qolib ketishdi.

1934 yilda Katta Jaydoq qishlog'ida "Guliston", "To'lqin", "Rabochiy", "qizil soqchi", "Jaydoq" kolxozlari birlashib, "Pravda" nomini oldi. Kolxoz raisi qilib Mukarram Qozoqova saylandi. 1947 yilda "Yangi obod" kolxozi ham qo'shilgan. Kolxoz tuzumida Rizvon-bibi Cho'lponovanning fidoiy mehnati tahsinga loyiq. Rayonda paxtachilik sohasi bo'yicha ilg'or paxtakorlar etishib chiqqan. Zarbdor kolxozchilarining 1935 yil fevralida bo'lib o'tgan II se'zdiga "Paxtakor" kolxozining raisi Ahmadjon Karimov, "O'zbekiston" kolxozining raisi toshtemir rahmatullaev, "Oktyabr" kolxozining raisi Ismoiljon Yo'ldoshev, "Paxtakor" kolxozining raisi Ismoiljon G'ofurov va Turg'un Holiqovlar ishtirok etganlar. "O'zbekiston" kolxozining raisi Toshtemir Rahmatullaev ma'ruzaga chiqib, kolxozchi ayollarga dekret ta'tili berilishini va ta'tilga haq to'lanishini taklif qiladi. Shundan keyin qaror chiqarilib, kolxozchi ayollarga dekret ta'tili tug'ishgacha bir oy, bola tug'ilgandan so'ng ham bir oy qilib belgilangan va amalga oshirilgan.

1936 yilgacha paxtaning kechki navi ekilib, pishmay qolar dekabr, yanvar oylarida qor ostidan ko'sak terib uylarda, ko'sak chuvilar edi. Paxta xosildorligi gektariga 15-17 sentnerni tashkil qilar edi. Selleksioner Rumshevich yaratgan F-108 paxta navi ("to'ng'iz" chigit deyishardi) xosildorlikni ko'tarib, paxtaning pishishini 25 kunga surib, gektaridan 20-22 sentener xosil olinadigan bo'ldi. Bu nav deyarli 25 yil respublikada xukmron nav bo'lib, so'ng Afrika mamlakatlarida ham ekiladigan bo'ldi.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: коллективлаштириш, қулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т., Шарқ, 2003. 302-бет.

² Трагедия среднеазиатского кишлака. Том 2. Ташкент: "Шарқ", 2006. С. 48.

³ Трагедия среднеазиатского кишлака. Том 2. Ташкент: "Шарқ", 2006. С.155,160.

1929-1933 yillarda rayonda jami 112 ta mayda xo'jaliklar tashkil qilingan, 1940 yilda bular soni 64 taga, 1950 yilda 36 taga 1960 yilda 15 taga etdi. 1980 yilga kelib esa 10 ta yirik kolxoz faoliyat ko'rsatdi.¹

Xullas, O'zbekistonning barcha hududlari qatori Farg'ona vodiysi okruglarida hokimiyat organlari tomonidan yoppasiga kolxozlashtirish deyarli fuqarolar urushi qonunlari asosida, harbiycha, mirshablikcha usul va yo'llar orqali, zo'ravonlik bilan amalga oshirildi. Bu jarayon qishloq aholisini g'azab-nafratga keltirdi. Butun «sovet qishloqlari» jo'nbo'shga kelgan edi. Ana shu vaqtda Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi «Pravda»da 1930 yil 2 marta e'lon qilindi. Unda kollektivlashtirishdagi butun «qing'irliklar» uchun ayb mahalliy xodimlarga to'nkaldi.

Bundaylarga qarshi qattiq choralar ko'rish ko'zda tutildi. Ayni vaqtda kollektivlashtirish va quloqqa tortish borasida ma'lum yon berishlar kelib chiqdi. Oqibatda kollektivlashtirish ham, quloqlashtirish ham biroz sekinlashtirildi. Joylarda quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning ro'yxatini tekshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Ro'yxatga tushgan o'rtahol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi, hatto ulardan tortib olingan chorvasi, va mol-mulkilari qaytarib berildi.²

Ammo bu yon berishlar bolsheviklar uchun qimmatga tushdi. Zo'ravonlik bilan, ma'muriy yo'l bilan tuzilgan kolxozlar tarqalib keta boshladi. Oqibatda O'zbekiston bo'yicha kollektivlashtirish 1930 yil martdan maygacha 47,8 foizdan 27,5 foizga tushib qolgan.

Bundan partiya va hukumat sarosimaga tushadi. VKP(b) MQ 1930 yil sentyabrida mamlakatdagi barcha partiya tashkilotlari rahbariyatlariga «kollektivlashtirish to'g'risida» maktub yo'llashga majbur bo'ladi. Unda «kolxoz harakatini yangidan qudratli yuksaltirishga erishish» uchun dehqonlar orasida faol siyosiy va tashkilotchilik ishlarini avj oldirish tavsiya qilingan edi.

Shu bois 1930 yilning kuzidan boshlab qishloqda dehqonlar ommasiga qarshi kurash, aytish mumkinki, fuqarolar urushi to'lqini yana yuzaga keldi. Kollektivlashtirish va u bilan birga quloqlashtirish sari yana hujum kampaniyasi boshlanib ketdi. 1931 yilning yoziga kelib dehqon xo'jaliklarining 56,7 foizi kollektiv xo'jaliklarga birlashtirildi, 1 dekabrda esa 68,2 foizga etdi. 1931 yilning bahoridan O'zbekistonda yalpi kollektivlashtirish va shu asosda quloqlarni sinf sifatida tugatish kampaniyasi qaytadan boshlandi.

¹ Махмуджон Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан”. 2010. Б. 44.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... 352-бет.

2. «Katta terror qurbonlarining hayot yo'li va taqdiri»

1937 yil 30 iyuldagi SSSR Ichki ishlar xalq komissari Nikolay Ejovning imzosi bilan “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarini qatag'on qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida” № 00447-sonli operativ mutlaqo mahfiy tamg'a ostidagi buyruq¹ qabul qilindi. Unda antisovet uyushmalarini tergov qilish materiallarida avvalida qatag'on qilingan, qatag'on bo'lishdan yashirilib yurgan, lagerlardan, surgunlardan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan quloqlarning katta qismi qishloqlarda o'nashib qolgani qayd etilgan. Shuningdek cherkovchilar, sektantlar, siyosiy partiyalar, eserlar, dashnoqlar, mussavatchilar, ittihadchilar, banditlar, qo'zg'olonchilarning sobiq faol ishtirokchilari, oq jazochilar, reapatriontlar, turli xil jinoyatchilar, retsidivist-o'g'rilar, talonchilar, jazoni o'tab qamoqdan qochib kelib, qatag'on bo'lishdan yashirilib yurganlar ham qishloq va shaharlarda uya qurib olganliklari buyruqda ta'kidlangan. Ushbulardan kelib chiqib davlat xavfsizligi organlari oldiga ana shu antisovet elementlar bandasini hech ayamasdan tugatish, mehnatkashlarni, sovet xalqini ularning aksilinqilobiy hurujlardan himoya qilish va ularni sovet davlatining asosiga, negiziga qarshi qilgan abraxona qo'poruvchiligini tag-tugi bilan abadul-abad yo'q qilish zarurligi o'sha buyruqda ko'rsatilgan². Buyruqda operatsiyani 1937 yil 5 avgustdan boshlab to'rt oy muddatda yakunlash kerakligi ko'rsatilgan. O'rta Osiyo respublikalarida operatsiya 1937 yil 10 avgustdan boshlanadigan bo'lgan. Buyruq bilan respublikalar, o'lkalar va viloyatlar, “uchliklar” tarkibi ham tasdiqlangan. O'zbekiston SSR “uchligi” respublika Ichki ishlar xalq komissari N.A.Zagvozdin (rais), O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov, Xalq komissarlar soveti raisining o'rinbosari Jo'rabek To'rabekov (a'zo)lardan iborat tasdiqlandi. “Uchlik” yig'ilishlarida O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida O'zSSR NKVD Davlat xavfsizligi boshqarmasi 8- bo'lim boshlig'i leytenant Yakovlev ishtirok etishi ko'rsatilgan. O'zbekistonda 1937 yil 10 avgustdan “Uchlik”ning yig'ilishlari boshlangan. Shu 10 avgustdan 1938 yil 1 yanvargacha O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Shundan 5924 kishi sobiq “quloqlar” 1679 kishi jinoyatchilar, 3097 kishi “sovetlarga qarshi unsurlar” sifatida qatag'on qilindi. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo'yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo'yicha 8-10 yil muddat bilan qamoq jazosiga xukm qilingan. Otuvga xukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 8-10 yilga xukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan³. Ana shu katta miqdordagi qatag'on qurbonlaridan, ya'ni 10700 kishidan biz 8338 nafarini nomma-nom aniqladik va ular haqidagi asosiy ma'lumotlarni e'lon qildik. Ulardan 2358 nafari otilgani, 5903 nafari 10-8 yil qamoq jazosiga tortilgani, 77 nafari ozod etilgani ma'lum bo'ldi.⁴ Repressiya mashinasini to'htatish og'ir kechdi, repressiyani 4 oy muddatda tugatish mumkin bo'lmadi, u 1938 yilda ham davom etdi va uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichni 1938 yilning fevrali bilan belgilash mumkin. VKP (b) Markaziy komiteti 1938 yil 31 yanvarda “SSSR NKVD ning 1937 yil 30

¹ Катагон курбонлар. (Бешинчи китоб), Тошкент, “Шарк”, 2009, Б.3.

² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шарк 2006.

³ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шарк 2006.

⁴ Шамсутдинов Рустамбек. Катагон курбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, “Шарк”, 2007.- Б 497; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. 1937 год. ноябрь.-Тошкент, “Шарк”, 2007.- С.496; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. 1937 год. декабрь.-Тошкент, “Шарк”, 2008.-С.572. Шамсутдинов Рустамбек. Катагон курбонлари (1938 йил февраль, сентябрь)- Тошкент, “Шарк”, 2009.- Б 413.

iyuldagi buyrug'i bo'yicha repressiya qilish uchun qo'shimcha limitlarni tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qildi. Uni Markaziy Komitet Bosh kotibi I.Stalin imzolab, viloyatlar, o'lkalar partiya komitetlariga, milliy kompartiyalar Markaziy komitetlarga yo'lladi. qaror bilan SSSR NKVDsining repressiya qilinadigan sobiq quloqlar, jinoyatchilar va faol antisovet elementlarni repressiya qilish uchun qo'shimcha limit miqdori ham ko'rsatildi. 19 ta mintaq bo'yicha repressiya qilinadiganlar miqdori ham belgilanib qo'yildi. O'zbekiston SSR bo'yicha 2 ming kishi 1- kategoriya bo'yicha, ya'ni otuvga, 500 kishi 2- kategoriya bo'yicha, ya'ni 10-8 yil qamoqqa jazosiga repressiya qilish ko'zda tutilgandi. Repressiyani o'tkazish 1938 yil 15 martgacha tugallanishi ko'rsatilgandi. Ma'lumki, N.I.Ejovning 1937 yil 11 dekabrda telegrammasida "quloqlar" operatsiyasi bo'yicha faoliyatda bo'lgan uchliklar o'z ishlarini 1938 yil 1 yanvargacha tugallashlari, mahalliy Ichki ishlar organlari operatsiya bo'yicha yakunlangan xisobotlarini topshirishlari kerak edi. VKP (b) Markaziy Komitetining 1938 yil 31 yanvardagi qarori bilan o'sha avvalgi uchliklar faoliyati muddati uzaytirildi. Barcha uchliklar ishni 1938 yil 15 fevralgacha tugallashlari belgilab qo'yildi. Shu bois, O'zbekiston SSRda faoliyatda bo'lgan uchlik ham o'z ishini davom ettirdi.

Bu vaqtda O'zSSRdagi uchlik O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari D.Z.Apresyan (rais), O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov, O'zSSR prokurori Sheyndlin (a'zolari), Davlat xavfsizlik Komiteti leytenant, 8-bo'lim boshlig'i Baronenko (kotib)lardan iborat edi.

Shu tarkibdagi uchlik 1938 yil 4 fevralda 2 ta, 7 fevralda 2 ta, 9 fevralda 2 ta, 10 fevralda 3 ta, 13 fevralda 3 ta, 14 fevralda 1 ta, 16 fevralda 5 ta, 17 fevralda 3 ta, jami 21 ta yig'ilish o'tkazdi. Bu yig'ilishlarda 2491 mahbus ustidan hukm chiqarilib, ulardan 2086 mahbus otuvga, 398 mahbus 10 yil muddatga, 2 mahbus 8 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga qamoqqa hukm etildi, 4 mahbus tergov vaqtida vafot etgan, 1 mahbus ozod qilingan.

Kuniga o'rtacha 311-312 kishi ustidan hukm chiqarilgan. Masalan, 10 fevraldagi yig'ilishda 472 mahbus, 16 fevraldagi yig'ilishda 553 mahbus ustidan hukm chiqarilgan. Hukm chiqarishda mahbuslarning o'zlari ishtirok etmagan, uchlik joylardagi operativ sektorlar taqdim qilgan ayblov xulosalariga asoslanib hukm chiqarilgan.

Hukmga tortilgan mahbuslar hududlar bo'yicha taqsimlanganda, eng ko'p miqdorda qatag'on qilinganlar Xorazm okrugida (752), Andijon okrugida (296), Buxoro okrugida (188), Samarqand okrugida (131), qoraqalpog'istonda (154), Namangan shahrida (320), qo'qon shahrida (102) bo'lgani aniqlandi.

Bu qatag'on qilinganlarning ijtimoiy tarkibida sobiq quloqlar 1771 kishi (71 foiz), ishchi-xizmatchilar 583 kishi, dindorlar, ruhoniylar, imom va eshonlar 153 kishi, sobiq savdogarlar 72 kishi, hibsga olinganda mashg'uloti aniq bo'lmaganlar 792 kishi bo'lgan. Milliy tarkibida esa o'zbeklar 1947 kishini, qoraqalpoqlar 142 kishini, 402 kishi esa rus va boshqa millat vakillari bo'lgan. Bir qancha bayonnomalarda mahbuslarning millati ko'rsatilmagan. Bunday holatda mahbuslarning yashash joyi, manzili, kasbi, ismi va sharifini bilish orqali qaysi millatga mansubligini aniqlash mumkin bo'ldi.

1938 yildagi repressiyaning ikkinchi bosqichi o'sha yilning sentyabriga to'g'ri keladi. VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 1938 yil 15 sentyabrda NKVD to'g'risidagi masala yuzasidan qaror qabul qiladi. SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yildagi № 00485, № 00439 hamda 1938 yildagi № 302 va № 326 – sonli buyruqlari bo'yicha qamoqqa olingan aksilinqilobiy milliy kontingentlar bo'yicha ko'rilmay qolgan tergov ishlarini joylardagi maxsus uchliklarga berish haqidagi taklifini ma'qullaydi. Maxsus uchliklar oblastlar, o'lkalar va milliy Kompartiyalar Markaziy komitetlari birinchi kotiblari, NKVD boshliqlari va prokurorlar tarkibida tuzilishi ko'rsatiladi. Bu uchliklar 1938 yil 1 avgustgacha qamoqqa olinganlar ishini ko'rib chiqishlari va bu ishni 2 oy muddatda tugallashlari talab qilingan.

1938 yil 1 avgustdan keyin qamoqqa olinganlar milliy kontingent shaxslarning ishlarini tegishli sud organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladigan bo'lgan.

Maxsus uchliklarga SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yil 25 avgustdagi № 00485 – sonli buyrug'i asosida birinchi kategoriya va ikkinchi kategoriya bo'yicha hukm

chiqarish huquqi berilgan. Agar ishda ayblanuvchining ishida etarli ayblov materiallari bo'lmasa, bunday shaxslarni qamoqdan ozod qilish haqida qaror qilinishi ko'rsatilgan. Maxsus uchliklarning birinchi kategoriya (otuvga hukm qilish) bo'yicha qarori zudlik bilan ijro etilishi aytilgan.¹

Siyosiy byuroning bu 1938 yil 17 sentyabrdagi qarorini rivojlantirish uchun SSSR Ichki ishlar Xalq komissarligining № 00606 – sonli maxsus uchliklar ishi tartibi to'g'risida buyrug'i qabul qilinadi va unda jazo siyosatini yumshatishga qaratilgan tadbirlar ilgari suriladi.

Birinchidan, xorijliklarni qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni e'tiborga olib “maxsus uchliklar xorijlik fuqarolarga qo'zg'atilgan ishlarni ko'rmasligi” qayd qilingan. Ikkinchidan, “maxsus uchliklar” hukm chiqarganlarida 1937 yil 25 avgustdagi buyruq asosida birinchi va ikkinchi kategoriyalar bo'yicha ish ko'rsalarda, unga qo'shimcha, yangilik tarzida bu “maxsus uchliklar” ishini to'laroq tekshirish uchun qaytarib yuborishi va ayblanuvchini, agar jazo beruvchida etarli ma'lumotlar bo'lmasa, qamoqdan ozod qilish haqida qaror chiqarish imkoniga ega bo'lganlar.²

SSSR NKVDning 1938 yil 17 sentyabrdagi № 00606 – sonli operativ buyrug'iga muvofiq O'zbekiston SSR bo'yicha respublika Ichki ishlar xalq komissari D.Z. Apresyan raisligida O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov (a'zo), O'zbekiston SSR prokurori Kuxarenko (a'zo)lardan iborat uchlik tuzildi. Uning kotibi qilib O'zSSR Ichki ishlar komissarligi huzuridagi inspektor, davlat xavfsizlik leytenanti Martinenko tayinlangan. Bu uchlik bor-yo'g'i ikki kun yig'ilish o'tkazgan.

Bayonnomalarda 475 mahbus ishlari ko'rib chiqilgani qayd etilgan. Ulardan oliy jazoga 98 kishi, 10 yil qamoq jazosiga 245 kishi, 8 yil qamoq jazosiga 31 kishi hukm qilingan. 21 mahbusning ishi qaytadan ko'rib chiqish uchun Harbiy tribunalgacha yuborilgan, 4 mahbus ozod qilishga hukm etilgan. qatag'on qilingan bu mahbuslarning milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: 195 kishi eroniy, 59 kishi uyg'ur, 43 kishi o'zbek, 41 kishi nemis, 18 kishi polyak, 13 kishi afg'on, 12 kishi rus, 11 kishi tojik, 10 kishi yahudiy, 10 kishi venger, 8 kishi fors, 8 kishi arman, 6 kishi turk, 5 kishi latish, 5 kishi koreys, 5 kishi dungan, 58 kishi qirg'iz, 4 kishi tatar, 3 kishi turkman, 3 kishi belorus, 2 kishi arab, 2 kishi hind, 2 kishi bolgar, 1 kishi qoraqalpoq, 1 kishi ukrain, 1 kishi grek, 1 kishi xitoy millatiga mansub bo'lgan. Ular 29 millat vakillari edi.

1938 yil sentyabrda O'zbekiston SSRdan qatag'on qilinganlarning qariyb 91 % foizi boshqa millat (9% foizi o'zbeklar) vakillaridan iborat bo'lgan. Ana shu katta foizni tashkil etgan chel elliklar, xorijdan kelib respublikada o'ralashib kolgan, turli xil xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotganlar josuslikda, razvedkachilikda, (Eron josusi, Angliya josusi, Xitoy josusi, Latviya josusi, Turkiya josusi) kabi ayblar bilan qamoqqa olinganlar. Bundan tashqari respublikaning tub fuqarolari, sobiq quloq, sobiq bosmachi, ruhoniyning farzandi, aksilinqilobiy guruhlar a'zosi, amir chinovnigi, boy, savdogar, ilgari sudlangan, qamalgan, surgunda bo'lgan, aholi va jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ib, sovet hukumatiga qarshi terrorchilik, g'oyaviy, fashistik, antisovet, antikolxoz, aksilinqilobiy tashviqotlar olib borgan, hududlardagi harbiy kuchlar, harbiy qismlar, organlar haqida axborot yig'ib, chetga uzatgan, emigratsion ruhdagi tashviqotlar olib borib, aholini Afg'onistonga, Eronga, Xitoyga, Tojikistonga va boshqa joylarga ko'chib o'tishga da'vat qilgan (chet davlatlar konsulliklari xodimlari bilan uzviy aloqada bo'lgan), yolg'on uydirmalar to'qib, aholining fikrini o'zgartirishga harakat qilgan degan “ayblar” bilan qatag'on qilinganlar. Chet elliklarning 88-90 % foizi turli, ayniqsa aholi ko'p ishlaydigan joylarda, zavod, fabrika, artellar, kolxozlar, harbiy qismlar, nonvoyxonalar, sartaroshxonalar, RayFo, SelPO, choyxonalar, paxta zavodlari, magazin va do'konlarda savdogarlar ma'lumot to'plab va aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шарк 2006. Стр-206.

² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шарк 2006. Стр-208.

borganlikda ayblanganlar. Xorijliklarning ma'lum qismi oliy ma'lumotli bo'lgan, ular oliy o'quv yurtlarida, maktablarda chet tilidan o'qituvchi, xo'jalik ishlarida ishchi, tarjimon va boshqa vazifalarda ishlaganlar. Ularning ayrimlari chet el fuqarosi sifatidagi sohta pasport yoki umuman pasportsiz yashab, faoliyat ko'rsatganlar.

Bunday ayblar bilan aybdor deb topilganlarning 20 foizi otuvga, 75% foizi 10, 8, 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan, 21 kishi (4% foiz)ning ishi qayta ko'rib chiqish uchun harbiy tribunalga yuborilgan, 4 kishi aybsiz deb topilib, qamoqdan ozod etilgan.

1938 yil 23 oktyabrdagi buyruq bilan SSSR NKVDning organlaridagi tergov ishlarini tartibga solish bo'yicha tadbirlari tasdiqlandi. Xususan, NKVDning operativ bo'limlarda maxsus tergov qismlarini tashkil etish qarori ma'qullandi. NKVD organlaridagi tergov ishlarini to'g'ri tashkil qilishga alohida e'tibor berib, markazda va joylarda siyosiy jihatdan eng yaxshi tekshirilgan, o'zini ishda malakali qilib ko'rsatgan partiya a'zolaridan tergovchilar tayinlash SSSR NKVDsiga yuklatildi.

Markazda va joylarda NKVD organlaridagi tergovchilar faqat SSSR NKVD buyrug'i bo'yicha tayinlanadigan bo'ldi.

Ushbu qarorni aniq bajarilishini ta'minlash uchun SSSR NKVD va SSR Ittifoqi prokuroriga o'zlarining mahalliy organlariga ko'rsatma berish topshirildi.

SSSR XKS va VKP(b) MK barcha NKVD va prokuratura xodimlari diqqatini yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni keskin bartaraf qilishga, butun tergov va prokurorning ishlarini yangicha tashkil qilishga qaratdi. Ayni vaqtda NKVD va prokuraturadagi barcha xodimlarni sovet qonunlarini hamda partiya va hukumat direktivalarini biroz buzgandek bo'lsalar, ularning shaxsiyatiga qaramay, og'ir sud javobgarligiga tortilishi mumkinligi qo'shma qarorda ko'rsatib o'tildi.¹

Ushbulardan ma'lumki, sovet rejimi tomonidan 1937 yil iyulidan boshlangan "Katta terror" 1938 yilning noyabrigacha davom etgan. Bu mudhish qatag'on butun sobiq Ittifoq xalqlari tarixiga eng fojeali sahifa bo'lib kirdi. Ular bu fojeani hech qachon, aslo o'z qalblari va xotiralaridan chiqarmaydilar. Bu fojea tariximizning eng og'ir, qayg'uli, alamli, hasratli, motamli sahifasidir.

1937-1938 yillarda amalga oshirilgan qatog'on siyosati butun ittifoq, shuningdek O'zbekistonda bo'lgani kabi Norin tumanini ham chetlab o'tmadi. 1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli buyrug'i asosida 1937-1938 yillar «Katta terror» davrida ko'plab Norinlik vatandoshlarimiz qatog'on tig'iga tortildilar. «Katta terror» davrida qatog'on qilingan Norinlik vatandoshlarimizning ijtimoiy tarkibini tahlil qilganimizda asosan, sobiq quloqlar, sovet hukumatiga, bolsheviklarning agrar siyosatiga qarshi fikr bildirganlar, diniy ulamolar tashkil etgan. Bularning ichida ziyolilar, ulamolar, imom, eshon va boshqa musulmon ruhoniylar ham ko'pchilikni tashkil etgan. Sobiq quloqlar va diniy ulamolarga asosan sovet hukumatiga qarshi chiqqan kuchlar sifatida qaralgan. Ularga qo'yilgan ayblovlarda dindorlarning aksilinqilobiy guruhlariga a'zoligi, hukumatga qarshi mag'lubiyatchilik, diniy ruhdagi antisovet fikrlar, mish-mishlar tarqatganlik va boshqa ayblovlar qo'yilgan.

1937-1938 yillarda amalga oshirilgan qatog'on siyosati butun ittifoq, shuningdek O'zbekistonda bo'lgani kabi Norin tumanini ham chetlab o'tmadi. 1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli buyrug'i asosida 1937-1938 yillar «Katta terror» davrida ko'plab marxamatlik vatandoshlarimiz qatog'on tig'iga tortildilar. «Katta terror» davrida qatog'on qilingan Norinlik vatandoshlarimizning ijtimoiy tarkibini tahlil qilganimizda asosan, sobiq quloqlar, sovet hukumatiga, bolsheviklarning agrar siyosatiga qarshi fikr bildirganlar, diniy ulamolar tashkil etgan. Bularning ichida ziyolilar, ulamolar, imom, eshon va boshqa musulmon ruhoniylar ham ko'pchilikni tashkil etgan. Sobiq quloqlar va diniy ulamolarga asosan sovet hukumatiga qarshi chiqqan kuchlar sifatida qaralgan. Ularga qo'yilgan ayblovlarda dindorlarning aksilinqilobiy guruhlariga a'zoligi, hukumatga qarshi mag'lubiyatchilik, diniy ruhdagi antisovet fikrlar, mish-mishlar tarqatganlik va boshqa ayblovlar qo'yilgan.

¹ Шамсутдинов Рустамбек. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, "Шарқ", 2007. Б-263.

1938 yil 16 fevralda Uchlikning yig'ilishi 83-sonli bayonnomasida 112 nafar mahbus ustidan hukm chiqarilgan, ulardan 106 ta maxbusni otuvga, 6 ta maxbusni 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.

Shulardan 18 nafar norinliklar otuvga hukm qilinganlar:

Mo'min Xojiev Tojiboy - 1883 yili tug'ilgan. Norin tumani Xakulobod qishlog'idan, sobiq quloq quloqqa tortilgan, 1932 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik ruhidagi aksilinkilobiy targ'ibot olib borgan, aholini sovet hukumatini ag'darish uchun qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish maqsadida birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Eshmatov Mulla Do'smat - 1894 yili tug'ilgan. Norin tumani **** qishlog'idan, ilgari faol bosmachi, sobiq; quloq, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik va mag'lubiyatchilik ruhidagi aksilinkilobiy targ'ibot olib borgan, aholini sovet hukumatini ag'darish uchun qo'zg'olonga tayyorligi haqida uydirma gaplar aytganlikda ayblangan.¹

Sobirov Abdupatto - 1902 yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq. quloq, quloqqa tortilgan, hibsga olingan vaqtda kolxozchi.

U kolxozchilar orasida aksilinkilobiy bo'hton targ'ibotlar olib borgan, kolxozchilarni aksilinkilobiy isyon kutarishda birlashishga chaqirgan, qishlok faollariga nisbatan terroristik qarashlarini aytganlikda ayblangan.

Pirmatov Ergash- 1888 yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq quloq , quloqqa tortilgan, 1930 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 5 yil surgun jazosiga hukm kilingan. hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy isyonchilik va mag'lubiyatchilik targ'ibotini olib borgan, kolxozchilarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlikga chaqirganlikda ayblangan.

Abdurahmonov Mamarasul - 1902 yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1934 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, jazoni o'tamagan, kochgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik targ'ibotini olib borgan, qishlok faollari haqida terroristik qarashlarini gapirgan, kolxozchilarni uyushgan xolda hukumatga qarshi chikishga chaqirganlikda ayblangan.

Qosimov Do'stmirza- 1890 yil tug'ilgan, Norin raoyini Cho'ja qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1930 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik targ'ibotini olib borgan, hukumatga qarshi namoyish kilishga chaqirgan, fishistlarning qarashlari ostida kommunistlarga qarshi terroristik birlashmalar tashkil qilganlikda ayblangan.

Toshxujayev Xaqqul - **** yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq; quloq, quloqqa tortilgan, 1934 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni birlashgan xolda hukumatga qarshi namoyish kilishga chaqirganlikda ayblangan.

Egamberdiev Sharipboy - 1880 yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq. quloq, quloqqa tortilgan, ikki marta davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

¹ Шамсутдинов . Қатағон қурбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.238.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy kolxozga qarshi mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni birlashgan xolda hukumatga qarshi namoyish kilishga chaqirganlikda ayblangan.

Rustamov Aslan - 1885 yili tug'ilgan, Norin tumani Tumor qishlog'idan, sobiq quloq, kulovda tortilgan, ilgari faol bosmachi, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish maqsadida birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Mamurov Yo'ldash - 1900 yili tug'ilgan, Norin tumani Tumor qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1932 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 5 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish maqsadida birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Toshtemirov Tirkash - 1905 yili tug'ilgan, Norin tumani Polvonkul qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, kolxozchilarini hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish maqsadida birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Mamatkarimov Oxun - 1900 yili tug'ilgan, Norin tumani Xonobod qishlog'idan, quloqlardan, ilgari faol bosmachi-jallod, hibsga olingunga qadar doimiy ravishda banditizm bilan shug'ullangan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy millatchilik targ'ibotini olib borgan, xalq dushmanlarini maqtagan, kolxozchi faollarni o'ldirishda qo'rqitgan, ilgari militsiya boshlig'ini o'ldirishda ishtirok etganlikda ayblangan.¹

Rustamov Qoratoy - **** yili tug'ilgan. Norin tumani Polvonko'l qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1930 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borgan, qishloq faollariga nisbatan terroristik qarashlarini gapirganlikda ayblangan.

Umrzaqov Abduxoliq - 1887 yili tug'ilgan. Norin tumani Sho'ro qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1929 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 5 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda kolxozchi.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi kurashish uchun birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Allanazarov Qo'chqar - **** yili tug'ilgan. Norin tumani Yaydaq qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1932 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 5 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik va mag'lubiyatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi chiqishga tayyorlanish uchun birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Akaev Abdasa - 1902 yili tug'ilgan. Norin tumani Kema-boshi qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1932 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 5 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik va mag'lubiyatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olon qilishga tayyorlanish uchun birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

O'rozov O'rmon - 1882 yili tug'ilgan. Norin tumani Yaydaq qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1932 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

¹ Шамсутдинов . Қатағон курбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.241.

U aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik va mag'lubiyatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olon qilishga tayyorlanish uchun birlashishga chaqirganlikda ayblangan.¹

Shulardan bir nafar norinlik 10 yil MTL qamoq jazosiga hukm qilingan.

Abduraximov Qo'chqar - 1916 yili tug'ilgan. Norin tumani Tumor qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1932 yilda O'zbekistondan tashqariga surgun qilingan, surgundan qochgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi chikish uchun birlashishga chaqirganlikda ayblangan.²

Hozirgi kunda 1937-1938 yillarda qatag'onga uchragan vatandoshlarni jumladan Norinlik qatog'on qurbonlarini izlab topish ularni ijtimoiy kelib chiqishi, nohaq qatog'on qilinishi, ularning keyingi taqdiri, avlodlarining taqdirini izlab topish boraisda Respublikamiz hukumati tomonidan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ko'plab olimlarimiz samarali ijod qilmoqda. Jumladan Andijonda tashkil topgan «Meros» xalqaro jamg'armasi professor R.T.Shamsutdinov rahbarligida ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Bugunga kelib prof. R. T. Shamsutdinov rahbarligida 1937-1938 yillarda qatog'on tig'iga tortilgan vatandoshlarni noma-nom aniqlab, Qosimov Do'stmirza, Toshxo'jaev Xaqqul, Egamberdiev Sharipboy, Rustamov Aslanlarning taqdiri xaqida materiallar to'plami yaratildi. Endigi vazifa o'sha Norinlik vatandoshlarimiz qismati, bosib o'tgan yo'l tarixini kengroq yoritish va ular haqidagi bor haqiqatni tiklashdan iboratdir.

¹ Шамсутдинов . Қатағон қурбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.248.

² Шамсутдинов . Қатағон қурбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.252.

3. Qatag'on qurbonlarining hozirgi avlodlari

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli kitobida tarix va ma'naviyat tushunchalarini atroflicha yoritib ekan, jumladan: "dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, buysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi."¹

Yurtboshimiz fikrini davom ettirib ekan, ma'naviy tahdid deganda, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qaratilgan xurujlarni nazarda tutish lozim, deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, XX asrning 20-30 yillarida "daho" Stalinning hokimiyati va uning tarafdorlari tashabbusi bilan amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish, quloqlashtirish, ular bilan parallel ravishda amalga oshirilgan surgun va 1937-1938 yillardagi "Katta qirg'in" siyosatlari xalqni – xalqligidan, millatni-millatligidan, otani-boladan, bolani-onadan ajratib tashladi.

Nikolay Ejovning 1937 yil 10 yildagi mudhish qarori minglab odamlarning yostig'ini quritdi, boshpanasidan ayirdi, tinchini buzdi, xo'rladi, insonni – inson, millatni-millat bo'lib yashashiga yo'l bermadi. Vaholangki, 1937-1938 yillarda nafaqat ma'lum bir xalq yoki millat, balkim bir vatanda yashovchi barcha millat vakillarini ham chetlab o'tmadi.

Qatag'on zulmiga girifdor bo'lgan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularni qatag'on qilingan qatlgohlarini izlab topish va u erlarda yodgorlik majmualarini yaratish bizning istiqloq, erk, ozodlik, millat uchun kurashgan ajdodlarimiz ruhi oldida ham qarz, ham farzligini aslo unutmasligimiz lozim.

Bugungi kunda millat uchun, vatan uchun jon fido etgan, sovet rejimi qatag'oniga uchragan, yurtboshimiz fikri bilan aytganda ma'naviy jasorat ko'rsatgan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularning keyingi taqdiri, avlodlarini izlab topish, ulardan xotiralar olish mammosi ham hal qilinishi kerak bo'lgan masalalardan biridir.

Ana shunday vatandoshlarimizdan biri Toshxo'jaev Xaqquldir.

Bu inson haqidagi ilk ma'lumotni Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan, professor R.T.Shamsutdinov rahbar bo'lgan "Meros" xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi fondlarida saqlanayotgan "mahfiy" hujjatlardan olishimiz mumkin.

Tarixdan ma'lumki, XX asrning 30 yillarida sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on siyosati, umuman shu davrning siyosiy "qiyofa"sini ko'rsatuvchi hujjatlar "mutlaqo mahfiy"lik tamg'asi ostida temir sandiqlarda saqlangan edi. Istiqloq sharofati bilan bu kabi hujjatlar ochilmoqda, tahlil va talqin qilinmoqda. Shunday qatag'on qurbonlaridan biri Toshxo'jaev Xaqqul – yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1934 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, xibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhida targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni birlashgan holda xukumatga qarshi namoyish qilishga chaqirganlikda ayblangan.²

«Uchlik»ning 1938 yil 16 fevraldagi yig'ilishi asosida otuvga xukm etilgan.

Qatag'on qurboni bo'lgan Toshxo'jaev Xaqqulni izlab Namangan viloyati Norin tumani To'da MFYga borganimizda biz To'da MFY raisi D. Mamajonov bilan uchrashdik. Maqsadimizni tushintirganimizdan so'ng bizga Rasuljon Abdumajidovning "Hayot labirintlari"

¹ Islom Karimov. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 13-бет.

² Катагон қурбонлари. (Бешинчи китоб), Тошкент, "Шарк", 2009, Б.240.

kitabini ko'rsatib, To'da qishlog'i haqida ma'lumot berdi. Kitobda yozilishicha¹ To'da qishlog'ida asosan sortlar yashagan. Bu xududda xozir Marg'izor deb ataladigan qishloq bor. Buning asli Murg'-i-zor bo'lib, ma'nosi Murg', ya'ni tovuq, tustovuq ko'p bo'lgan joy deganidir.

Sortlar turmush tarzi qipchoqlarga nisbatan madaniyroq bo'lganligi tarixdan ma'lum, diniy urf-odatlar, to'y-u tomoshalar, ma'rakalar, oqsoqollarning jamoani boshqarish usullari bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Bu qishloqlarda ham ellikboshi, mingboshilarning ish yuritishi, madaniy muassasalarning, ta'lim-tarbiya berish usullari, oliq-soliqlar to'g'risida yozib qoldirgan solnomalari yo'q. Masalan, To'da xalqini boshqargan Ahmadjon mingboshining og'izdan-og'izga o'tib kelayotgani, bugun esa butunlay unitilib ketganini bilamiz, xolos. Xo'jaobodlik Sotiboldi qozi qanday saylangan, qozichilik mahkamasi, mufti haqida tasavvurga ham ega emasmiz.

To'daliklar zich yashash tarzini, hunarmandchilik va savdogarlikni yaxshi ko'rganlar. To'da qishlog'ining markazida (guzar) Rivojiddinovlar sulolasi ikki asrdan beri savdogarchilik bilan shug'ullanib kelmoqda.

To'daliklar dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullanishgan. Ko'pincha daryo qirg'og'iga tushib, xozirgi Kemaboshi qishlog'i xududidan er olib sholi ham ekishgan.

To'da axolisi juda qadim zamonlardan beri o'zgarmay kelayotgan ilm-ma'rifatga, sanoat va madaniyatga e'tiborlidir. Bu qishloqdan ko'plab olimlar, fozil kishilar etishib chiqqan. Ularning tili o'zbek adabiy tiliga juda yaqindir.

Ayollari ko'rkam, go'zal, qorasoch, xushbichim, ko'zlari katta-katta, sochlari uzun bo'lib, yaxshi kiyinishgan, o'rta bo'yli, to'laroq bo'lishgan. O'yin-kulguni yaxshi ko'rishgan. qishda to'planib olib, dutor chertib, ashulla aytishgan, bazm qilishag. Extimol dutor kuyi "Kampir begim" yallasi shu qishloqda yaratilgan bo'lishi ham mumkin. Iffatli-hayoli bo'lishgan ekan.

Qipchoq mahallalarida har 100-200 metrda qishda foydalanish uchun hovuzlar qazilib, suv to'ldirib qo'yishgan. qishda hovuz muzlab qoladi. Bir joyidan teshib, suv olinadi. Bolalar qishda o'zlari yasagan taxta(chena)larga o'tirib, yaxmalakda uchishgan.

To'dalik erkaklar dilkash, bosiq, mehmondo'stlikda qozoqovul, Polvonko'l, Cho'ja qishloqdagilardan yuqoriroq darajada bo'lganlar.

To'da bozorining qachon tashkil etilganligi noma'lum. O'tgan asrning elliginchi yillarida yopilib, mustaqillik yillarida yana ochilib, endilikda bu bozorda katta-katta savdo rastalari barpo etilib, tuman bozoridan ham katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lib, to'daliklar ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shundan so'ng bizni To'da MFY kotibi Sa'dulla Abdullaev qatag'on qurboni bo'lgan To'da qishlog'ilik Toshxo'jaev Xaqqulni jiyani Toshxo'jaev Zokirjonaka bilan uchrashtirdi. Toshxo'jaev Zokirjonotaning xotirlashicha² amakisi o'zining shaxsiy aravasi, ya'ni qo'qon aravasi bor bo'lib, oilasida besh o'g'il va oltita qiz bo'lib Xaqqul o'g'il farzandlarning to'rtinchisi bo'lgan. Toshxo'jaev Xaqqul sochi yo'q kal odam bo'lgan. Barmoqlari ham kalta bo'lib, bir-biriga yopishgan. qo'llarini orasini supurgini cho'pi bilan tozalagan. U kishining ayoli Fayzixon aya Burxonova kolxozda ishlagan. Kolxozga kirishi uchun u o'zini otini aravasiga qo'shib kolxozga bergan. Shuning uchun ham uni kolxozga qabul qilishgan. Ayoli kolxozda sidqidildan mehnat qilgan. Toshxo'jaev Xaqquldan to'rtta farzand qolgan. ikki qiz va ikki o'g'il. Katta o'g'li Toshxo'jaev Nurmuhammad 1921 yili tavallud topgan. Zokirjonotaning aytishicha akasi pilla zavodida, keyin esa 5 tanob erida 59 yil dehqonchilik qilgan. 1993 yilda vafot etgan. Kichik o'g'li Toshxo'jaev Xurali 1924 yilda tug'ilgan. Xurali maktabga bormay kolxozda ishlagan. 1952 yilgacha traktor mingan. 1992 yilgacha salkam qirq yil suv xo'jaligida mehnat qilgan. Katta qizi Saylixon 1928 yilda tug'ilgan. Kichik qizi Tojixon 1937 yilda tug'ilgan. Zokirjonota mustaqillik sharofati ila amakasini xotirasi tiklanganligidan benixoyat xursand ekanligini bizga bildirib, Andijon Davlat Universiteti jamoasiga, O'zbekiston tarixi

¹ Расулжон Абдумажидов. Хаёт лабиринтлари. (Одамлар ва йиллар). Биринчи китоб. "Мухаррир" Тошкент. 2012. Б.25-27.

² Toshxo'jaev Zokirjonota xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani To'da qishlog'i. 2012 yil 15 mart kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.

kafedrasiga jumladan, tarix fanlari doktori, professor O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Meros" ilmiy – amaliy ekspeditsiya xalqaro xayriya jamg'armasi rahbari professor R.T. Shamsutdinovga o'z minnatdorchiligini etkazishimizni aytib o'tdi.

Norin tumani To'da qishlog'ilik yana bir qatag'on qurboni bo'lgan Egamberdiev Sharipboy –1880 yili tug'ilgan, Norin tumani To'da qishlog'idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, ikki marta davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy kolxozga qarshi mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni birlashgan holda xukumatga qarshi namoyish qilishga chaqirganlikda ayblangan.¹

Istiqlolchilik xarakatining namoyondasi bo'lgan Egamberdiev Sharipboy oilada ikki farzandning otasi bo'lgan. Norin tumanining To'da qishlog'iga borganimizda bu kishining jiyani Olimov Foziljonning uchratib qoldik. U kishining xotirlashicha Egamberdiev Sharipboyning bir o'g'il bir qizi borligi, ularning ismlari Mannobjon Egamberdiev va Muhabbatxon Egamberdieva ekanligini gapirib berdi. Muxabbatxon Norinkapa qishlog'iga turmushga chiqqan va ko'p o'tmay kasal bo'lib vafot etgan. O'g'li Mannobjon esa «bosmachi»ning o'g'lisan deb kechqurun nama'lum shaxslar tomonidan olib chiqib ketganligini aytib o'tdi. Urushdan keyin o'z qishlog'iga kelib otasini erida bog' yaratganligini lekin ko'p o'tmay u ham vafot etganligini ta'kidladi.²

Qatag'on qurboni Rustamov Aslanni izlab Norin tumani Tumor qishlog'iga bordik.

Rustamov Aslan - 1885 yili tug'ilgan, Norin tumani Tumor qishlog'idan, sobiq quloq, kulovda tortilgan, ilgari faol bosmachi, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan.

U aholi orasida doimiy ravishda aksilinkilobiy mag'lubiyatchilik va isyonchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, dehqonlarni hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish maqsadida birlashishga chaqirganlikda ayblangan.³

Bu qishloqning nomi **Tumor** emas asli **Do'mar** deb atalar ekan. Xalq tilida Tumor qishlog'i deb ataladi. Do'mar forscha mor-ilon, du-ikki ma'nolarini anglatadi. Asosan, aholisi qirg'izlar. Unga shimoliy tomondan chegeradosh qiziltov qishlog'i bo'lib, chorvador qirg'izlar 250 yillar chamasi avval ko'chib kelib qolganlar. Bu qirg'izlar bilan qipchoqlar o'troq holda yashaganlar. Rivoyat qilishlaricha, o'tkinchilar ketayotib yo'lda ikki boshli ilonni ko'rishgan va Dumor deb atashgan. Shu tariqa qishloqning nomi Do'mar deb o'zbeklashgan. Do'mar qishlog'i atrofida qiziltov, To'lqin, Bo'ston qishloqlari joylashgan. To'lqin qishlog'ida Bo'ritepa tepaligi mavjud bo'lib, shu qishloqda istiqomat qiluvchi iste'fodagi zobit To'lqin Botirovning ko'p yillar urinib tadqiq qilishicha, qadimiy obidalaridan biri ekan.⁴

Tumor qishlog'ida biz maxalla oqsoqoli Soliev Obidota bilan uchrashdik. Soliev Obidotaning xotirlashicha⁵ ilgari xaqiqat xam asrimiz boshlarida ko'plab begunox insonlarni sovetlar tomonidan qatag'on uchratilgan. Bizning davrimizda sensovet (kolxoz idorasi) bo'lardi. Sensovetda ettita kolxoz qarar edi. Sensovetni Imin degan inson boshqarardi. Bu vaqtda men sensovetda kotib bo'lib ishlardim. Bizning qishloqdan uch-to'rt nafar inson qatag'onga uchragan. Ular ichida Rustamov Aslan xam bor edi. O'sha davrda GPUning boshlig'i Sagdullaev edi. Sagdullaev kechqurun kelib, bir necha insonlarni suxbatlashib olamiz deb olib ketardi. Shu buyi bu insonlar qaytib kelmasdi. Keyin bilsam ular ya'ni sovetlar qishlog'imizda ilmi, bilimli, ziyoli, o'ziga to'q insonlarni olib ketib qamoqqa olib, otuvga xukm qilishar ekan.

¹ Катагон курбонлари. (Бешинчи китоб), Тошкент, "Шарк", 2009, Б.240.

² Olimov Foziljon xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani To'da qishlog'i. 2012 yil 15 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.

³ Шамсутдинов. Катагон курбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.241.

⁴ Расулжон Абдумажидов. Хаёт лабиринтлари. (Одамлар ва йиллар). Биринчи китоб. "Мухаррир" Тошкент. 2012. Б.23.

⁵ Soliev Obidota ota xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani Tumor qishlog'i. 2012 yil 20 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.

Rustamov Aslanni avlodlari bormi degan savolimizga hozirgi kunda avlodlaridan bir kishi ya'ni Rustamov Aslanning chevarasi Jo`raboev Najmiddinaka borligini aytib o`tdi. Tumorliklik Jo`raboev Najmiddinaka o`z bobosi xaqidagi quyidagi xotiralarni¹ bayon etdi.

Dadam Aslanov Jo`raboyni aytishicha Bobomni «Amir» deyishgan. Bu inson avval rais so`ng xokim lavozimlarida ishlagan. 40 gektar eri 10 gektar bog`i bo`lgan. Uning ayoli Parqinsa aya qo`shoqova kolxozda ishlagan. 1974 yilda vafot etgan. To`rt o`g`il bir qizning tarbiyalashgan. Katta o`g`li Muxammadamin (tug`ilgan yili aniq emas) kolxozda suvchi bo`lib ishlagan. Dadam Jo`raboy (1926 yilda tug`ilgan) artelda ishlagan, keyin esa savdogarchilik qilgan. Axmadali (tug`ilgan yili aniq emas) xech erda ishlamagan. Oyimxon (tug`ilgan yili aniq emas) kolxozda ishlagan. Shaxobiddin (tug`ilgan yili aniq emas) ARZda ishlagan. O`zi kolxoz tuzgan. Doimiy ravishda otda yurib gullik chapon kiyib yurgan. Bobom Madaliaka degan sherigi bilan bir kechada olib chiqib ketishgan. Shunda ular Farg`onaga olib ketganlar. Farg`onaga borganimizda faqat bir marta ko`rishtirgan, shunda biz ust-bosh kiyim berganmiz. Shu bo`yi qaytib ko`rmaganmiz. Mening bilganlarim shundan iborat.

Jo`raboev Najmiddinakaga yordami uchun katta raxmat aytganimizda, u kishi o`z fikrini bildirib shunday dedi. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng aybsiz aybdorlar oqlandi. Shu munosabat bilan shunday shart-shoritlarni yaratib berayotgan Prezidentimizga katta raxmat aytmoqchiman. Shu bilan birgalikda professor R.T.Shamsutdinovga millat oldidagi bu ezgu harakatlari uchun bu kishining ishlariga ulkan zafarlar tilayman.

Yana bir qatag`on qurboni bo`lgan qosimov Do`stmirza-1890 yili tug`ilgan, Norin rayoni Cho`ja qishlog`idan, sobiq quloq, quloqqa tortilgan, 1930 yili davlat majburiyatini bajarmaganligi uchun 3 yilga sudlangan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg`uloti bo`lmagan.

U kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy mag`lubiyatchilik va isyonchilik targ`ibotini olib borgan, xukumatga qarshi namoyish qilishga chaqirgan, fashistlarning qarashlari ostida kommunistlarga qarshi terroristik birlashmalar tashkil qilganlikda ayblangan.² Lekin, bu inson xaqida Norin tumanidagi Cho`ja QFY iga uchraganimizda xech qanday ma'lumot yo`q ekanligini bizga bildirdilar.

Darhaqiqat, **O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 iyuldagi «Vatan va xalq ozodligi yo`lida qurbon bo`lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to`g`risida»gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 maydagi «qatag`on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to`g`risida»gi Farmoni va 2008 yil 5 maydagi “qatag`on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi mahsus qarori** mazkur muammoning tadqiqoti uchun muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Mustabid tuzum davridagi ommaviy qatag`onlar tufayli qurbon bo`lgan, insonlik sha'ni, qadr – qimmatini toptalgan vatandoshlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo`yish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Shu vazifalardan kelib chiqib nohaq qatag`on bo`lgan vatandoshlarimizning muqaddas nomlarini tiklash, ularni pok ruhlarini shod etish biz avlodlar uchun ham farz, ham qarzdir.

¹ Jo`raboev Najmiddinaka aka xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani Tumor qishlog`i. 2012 yil 20 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.

² Qatag`on qurbonlari. (Бешинчи китоб), Тошкент, “Шарк”, 2009, Б.240.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki 1937-1938 yillar davri «Katta terror» davrini kulminatsion nuqtasidir. Biz bu «Katta terror» kimlar tomonidan «ijod qilingani» va bu mudxish fojeaning ildizlari chuqur ekanligining va uni aniqlash yoʻlida turli qarashlar, talqinlar borligining ham shohidi boʻldik.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon boʻladiki, siyosiy qatogʻon va uning bir qismi «Katta terror»ning yuzaga kelishida muayyan ob'ektiv sabablar ham boʻlgan. Partiya va sovet hakimiyatiga, ayniqsa ularning rahbariyatiga qarshi qaratilgan muxolifat kuchlar kurash olib borib, siyosiy hokimiyatni oʻz qoʻllariga olish uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, barcha vositalarni qoʻllab, tish-tirnoqlari bilan jang olib bordilar. Bundan tashqari, mamlakatning turli mintaqalaridagi, hatto poytaxt Moskva va boshqa yirik shaharlarda uzoq vaqtdan beri rahbarlik lavozimlarini egallab kelayotgan partiya funktsionerlari mavqelarini, rahbarlik lavozimlarini qoʻlda saqlab qolish maqsadida «aksilinqilobchilar», «sovetlarga qarshi kuchlar», «sobiq quloqlar», «jinoyatchilar», sovetlarga saylov oʻtkazish jarayoniga qarshilik koʻrsatayotganligini roʻkach qilib, raqiblarga nisbatan keskin repressiv choralar koʻrishni Markazdan, Siyosiy byurodan, Stalindan soʻrab muroaat qildilar. Aslida ular 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasida belgilab berilgan yangi saylov tizimiga qarshi oʻt ochgan edilar. Chunki ngi saylov tizimida real hokimiyatni partiyadan halq qoʻliga olib berish, keng xalq demokratiyasini joriy qilish, davlatchilikni mustahkamlash vazifalari ilgari surilgan edi. Yangi saylov tizimi asosida saylov oʻtkazish tufayli ana shu mahalliy partiya rahbarlari real amal vazifalaridan mahrum boʻlishi kutilardi. Shu bois partiya funktsionerlari barcha «sovetlarga qarshi kuchlar» sobiq quloqlar va jinoyatchilarni qamoqqa olish, otuvga xukm etish takliflari bilan Markazga murojaat qildilar. Xullas, 1937-1938 yillardagi «Katta terror»ning yuzaga kelishida mahalliy partiya funktsionerlarining oʻrni va roli ham oz boʻlmagan.

Sobiq Ittifoqning bir qismi boʻlgan Oʻzbekistonda ham ana shu «Katta terror» davrida koʻplab vatandoshlarimizning haq-huquqlar toptaldi, begunoh yurtdoshlarimizga toʻqima soxta ayblar qoʻyildi, xilma-xil chaquvlar, tuhmatlar ishga solindi, tergov jarayonida mahbuslar behad qiynovga, ham jismoniy, ham ruhiy azobga solindi. «Uchlik»ning xukmi bilan minglab odamlarimiz otuvga hukm etildi, hukmlar joylarda tezkorlik bilan ijro etildi, har bir okrugda qatlgohlar, noma'lum qabristonlar paydo boʻldi. 8-10 mehnat tuzatuv lagerlariga hukm qilingan qatogʻon qurbonlari uzoq-uzoq yurtlarga-Shimolga, Uzoq Sharqqa, Sibirga, Uralga, Shimoliy qozogʻistonga surgan qilindilar. Ularning katta qismi oʻsha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh berolmay halok boʻldilar, juda ham oz qismi keyinchalik ozod boʻlib yurtga qaytdilar.

Xullas, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda qatogʻon qurbonlari boʻlgan, begunoh vatandoshlarimiz norinlik Qosimov Doʻstmirza, Toshxoʻjaev Xaqqul, Egamberdiev Sharipboy, Rustamov Aslanlarning hayot yoʻli, qismati va taqdirini uning avlodlari timsolida yoritib berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақиликка эришиш оstonасида.-Тошкент, Ўзбекистон, 2011. –Б.439.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курамиз. 7- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди. // “Халқ сўзи” гезетаси 2005 йил, 19 январь.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
- 7 Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини экс этириш. –Т.: Ўзбекистон, 2009. -
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонлари хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил 12 май.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”. – Тошкент, 2001 йил 1 май.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори “Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил, 22 июль.
11. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.:Шарқ, 2001.
12. Шамсутдинов Р.Т. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. –Т.: Шарқ, 2001.
13. Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Т.: Шарқ, 2003.
14. Шамсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. – Т.: Шарқ, 2005.
15. Репрессия: 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск №1. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Э.Ю. отв. ред. Н.Ф.Каримов. – Т.: Шарқ, 2005, - 285 с.
16. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. –Т.: Шарқ, 2006.
17. Р.Т.Шамсутдинов, Б.Расулов. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955гг. Документы и материалы. Том I-III. –Т.: Шарқ, 2006.
18. Шамсутдинов Р.Т. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. - Андижон, 2007.
19. Шамсутдинов Рустамбек. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5 ноябрь). Иккинчи китоб. –Т.: Шарқ, 2007.
20. Ватанимиз ўтмишидан. -Андижон, 2007.
21. “Репрессия” 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э, Мамажонов А, Дўсматов Э. – Т.: Шарқ, 2007.
22. Репрессия 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Э.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарқ, 2008.
23. Расулжон Абдумажидов. Ҳаёт лабиринтлари. (Одамлар ва йиллар). Биринчи китоб. “Мухаррир” Тошкент. 2012. Б.34.
24. Андижон тарихидан лавҳалар. – Андижон, 2008.
25. Қатағон қурбонлари. 1938 йил феврал, сентябр. Бешинчи китоб. Тузувчилар: Шамсутдинов Р., Қурбонов Х., Расулов Ж., Эгамбердиев Ф., Бекимматов У. Т.: Шарқ, 2009.
26. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғисон сургунидаги юртдошлар қисмати. Т.: Шарқ, 2009.

27. Маҳмуджон Мирзабоев., Расулжон Абдумажидов. Норин. (Норин туманининг 80 йиллигига бағишланади) Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан”. 2010. Б. 40.
28. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2002.
29. “Мерос” халқаро илмий-амалий экспедиция хайрия жамғармаси фонди китобларидан.
30. Toshxo`jaev Zokirjonota xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani To`da qishlog`i. 2012 yil 15 mart kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.
31. Olimov Foziljon xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani To`da qishlog`i. 2012 yil 15 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.
32. Soliev Obidota ota xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani Tumor qishlog`i. 2012 yil 20 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.
33. Jo`raboev Najmiddinaka aka xotiralaridan. Namangan viloyati Norin tumani Tumor qishlog`i. 2012 yil 20 aprel kuni Tursunova Iroda tomonidan yozib olingan.